

ISSN: 2181-4147

Scientific Journal

Scholar

Volume 1, Issue 12



zenodo



TOGETHER WE REACH THE GOAL

2023/12

May

ISSN 2181-4147
VOLUME 1, ISSUE 12
MAY 2023



<https://researchedu.org/index.php/openscholar>

“SCHOLAR” SCIENTIFIC JOURNAL

VOLUME 1, ISSUE 12, MAY, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldasheva

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

CHIGITLARNI BENTONENT LOYQASI BILAN KAPSULALAB EKISHNING AHAMIYATI

Turdiyev Botir Azamat o‘g‘li

botir-turdiyev@mail.ru

ToshDAU doktaranti (PhD)

Ergasheva Elnora Oltiboy qizi

Ergashevaelnora18@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada tuproq unumdorligi va urug‘ unuvchanligini oshirishda agrorudalrning roli bayon etilgan. Suningdek agrorudalarning qishloq xo‘jaligida ahamiyati, manbaalari, ularidan samarali foydalanish yo‘llariga to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: Tuproq unumdorligi, tuproqning suv-fizik xossalari, agroruda, bentonit, noa’nanaviy organo-mineral o‘g‘it, g‘o‘za, chigit, urug‘ unuvchanligi.

IMPORTANCE OF PLANTING SEEDS CAPSULED WITH BENTONENT

ABSTRACT. *This article describes the role of agro-minerals in increasing soil fertility and seed fertility. Information is provided on the importance of agro-ores in agriculture, sources, ways of their effective use.*

Key words: *Soil fertility, water-physical properties of soil, agro-ore, bentonite, non-traditional organo-mineral fertilizer, cotton, seed fertility.*

KIRISH. Qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda noan’ananaviy agrorudalarni qo‘srimcha oziqa sifatida qo‘llash yaxshi natijalar berishi o‘rganilgan.

Mavjud noan'anaviy mineral xomashyolar, ularning zahirasining ko'pligi hamda arzonligi bilan qishloq xo'jaligidagi tuproqning suv-fizik xossalarini yaxshilashda, ba'zi yetishmyotgan minerallar oziqalar o'rnini to'ldirishi yoki qo'shimcha oziqa sifatida ishlatilishida yuqori samaradorligi bilan ahamiyatlidir.

Mineral va mahalliy o'g'itlar taqchilligini yumshatish, tuproqning suv-fizik xossalarini yaxshilashda noan'anaviy agrorudalarni qo'shimcha oziqa sifatida qo'llash yaxshi natijalar berishini aniqlangan [1].

Surxondaryo viloyatidagi Hovdak konidan topilgan bentonit loyqasi g'o'zada qo'llanilganda, tuproqning suv-fizik va agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilangan va ekinlar hosili 3-4 s/ga ortgan. Hovdak bentonit loyqasi va turli mahalliy o'g'itlar asosida tayyorlangan kompostlarning tuproq unumidorligi, jumladan uning agofizikaviy, agrokimyoviy xossalariga hamda g'o'za majmuidagi ekinlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sirlari o'r ganilgan[2-3-4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrorudalarning alohidalik xususiyati va tarkibining turli komponentlarga boyligi, singdiruvchanligidagi fizikaviy-kimyoviy xossalariga ko'ra bentonit va bentonitga o'xhash jinslar, glaukonit va boshqalar ko'p tarmoqli xom ashyo hisoblanadi.

Bentonitning shimish xususiyati tuproqning suv-fizik va fizik-kimyoviy xossalariga yaxshi ta'sir qilishi, ularning tarkibida 20-60% va undan ko'p magniyili montmorillonit mineralining mavjudligidadir, shuning uchun o'zgaruvchan, bo'kuvchan va almashuvchan kation va anionlarning hajmi 100 gr tuproqda 23-150 mg/ekvni tashkil etadi. Qolaversa, bentonitlar o'simliklar uchun ozuqa manbai hisoblanadi, ularning tarkibida 0,3-4,7 % uglerod, 0,4-3,0 % kaliy, 0,3-1,0 % fosfor mavjuddir.

Bundan tashqari unda ko'plab mikroelementlar: mis, rux, bor, kobalt, molibden, marganes, oltingugurt mavjud. O'simlik ildizi tarqalgan tuproq qatlamidan

bentonit harakatchan shakldagi ozuqa unsurlari va gumusni suv bilan yuvilib ketishidan saqlaydi hamda tuproqda uglerod, azot, fosfor va kaliy zaxirasini ko‘paytiradi.[7]

Noan’anaviy agrorudalarni tuproqqa solish uning suv-fizik, fizik-kimyoviy hususiyatlardan tashqari oziqa tarkibiga ham o‘z tasirini ko‘rsatadi, natijada qishloq ho‘jalik ekinlarining o‘sishi rivojlanishi va hosildorligining oshishiga sabab bo‘ladi[2].

Bolg‘ali bentonit loyqasini xar gektarga N-150, P-105, K-75 kg/ga fonida qo‘sishmcha ravishda 750 kg/ga mavsumda yoki 3000 kg/ga bir marta shudgordan oldin berilganda Toshkent viloyati bo‘z tuproqlari sharotida paxtadan olingan hosil 14,2 % ga oshganligi aniqlangan[3-4].

NATIJALAR.

Bentonit tarkibida 0.3-4.7 % uglerod, 0.4-3.0 % kaliy, 0.3-1.0 % fosfor mavjud.Bundan tashqari ko‘plab mikrounsurlar: mis, rux, bor, kobal’t, molibden, marganes, oltingugurt bor. O‘simlik ildizi tarqalgan tuproq qatlamidan bentonit loyqalari xarakatchan shakldagi ozqiqa unsurlari va gumusni suv bilan yuvilib ketishidan saqlaydi hamda tuproqda uglerod, azot, fosfor va kaliy zaxirasini ko‘paytiradi[5].

Tuproqning suv-fizik xossalari, agrofizik xossalari, agrokimyoviy xossalari va unumdorligiga agrorudalarning ta’siri olimlar tamonidan o‘rganilgan.

S.Boltayev tadiqotlarida g‘o‘zada chigit unib chiqish dinamikasida bir xil ekish muddatiga ko‘ra kapsulalangan va oddiy ekilgan chigitlarning unib chiqishi va rivojlanish fazalarida o‘ziga xos farqlar kuzatilgan. Har bitta g‘o‘za navida kapsulalanib ekilgan variantlarda unib chiqish oddiy ekilganga nisbatan 10-15% yuqori bo‘lgan. Chiqqandan birinchi chin barg paydo bo‘lishigacha 7-10 kun, ikkinchi chin barg paydo bo‘lishiga esa 4-5 kun vaqt o‘tadi. Mo‘tadil haroratda va to‘g‘ri qo‘llanilagan agrotexnika sharoitida 43-45 kunlik o‘simlikda 6-7 ta barg hosil bo‘lgan (1-jadval)

1-jadval**G‘o‘za navlarining unib chiqish dinamikasi, %.**

G‘o‘za navlari	Ekish usuli	Kuzatuv muddatlari, kun		
		20.apr	01.may	03.may
Surxon-103	Kapsulalangan	65	90	96
Surxon-103	Oddiy	61	85	92
CT-1651	Kapsulalangan	55	90	95
CT-1651	Oddiy	54	84	91

Chigitni bentonent loyqasi bilan kapsulalab ekishning uning unuvchanligiga ta’sir bo‘yicha O’zR FA Navoiy bo’limi “Kimyo texnologiyasi, nanotexnologiyalar va qishloq xo’jaligi” bo’linmasi mudiri M.Ulmonov rahbarligida tadqiotlar olib borilgan.

Ilmiy-tadqiqot ishlarida bentonit gillaridan foydalanib chigitni kapsula qilib ekish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan.

Tajribada chigit 2019-yil 19-fevral muddatda issiqxona sharoitida 20 litr hajmdagi tuvaklarda, har bir tuvakda 4 donadan, jami 48 dona unuvchan urug’ ekilgan. Unib chiqgunga qadar harorat 8°C dan 18°C oralig’ida bo’lgan.

Unib chiqish nazorat sifatida ekilganda 1 donani tashkil etgan bo’lsa, ma’danli gil bilan kapsula qilib ekilganda esa 4 donani tashkil etgan. Unib chiqish tezligi nazorat sifatida ekilganda 7 kunni tashkil qilgan bo’lsa, ma’danli gil bilan kapsula qilib ekilganda esa ushbu ko’rsatkich 3 kunni tashkil qilgan.

MUHOKAMA.

S.Boltayev tadqiqotlarida g‘o‘zaning mavsumda keyingi rivojlanish fazalarida g‘am oddiy ekilgan variantlarga ko‘ra chigit kapsulalangan variantlarda o‘ziga xos jadallik borligi kuzatilgan. G‘o‘za navlarining muhim xo‘jalik belgilaridan biri - hosildorlik bilan uyg‘unlashgan holatdagi tezpisharlikdir. Tezpisharlik birinchi hosil shoxining joylashish o‘rni, gullashning boshlanishi va avjiga bog‘liqdir. Birinchi hosil shoxi gullarning ochilish avji va pishib yetilishi kapsulalangan variantlarda

tezroq sodir bo‘lgan. Ko‘saklarning pishib yetilish xuddi gullashdagi ketma–ketlikda sodir bo‘lgan. Ko‘saklarning ochilishida qisqa navbat (bosh poya bo‘ylab birinchi hosil shoxining birinchi ko‘sagi va ikkinchi hosil shoxining birinchi ko‘sagining ochilish orasidagi vaqt) 2-3 kun bo‘lib gullashdagidan kam farq qiladi. Ko‘saklarning gullashidan ochilishigacha bo‘lgan davri kapsulalangan variantlarda esa 60-66 kunni tashkil qiladi. Navlar tezpisharligi bo‘yicha asosan ko‘saklarning ochilish avjiga ko‘ra chigitni kapsulalab ekilgan variantlarda farqlanadi. Kapsulalangan variantlarda har-xil navlarda ularning ochilish avji 8-10 kungacha farq qilganligi aniqlangan.

O’zR FA Navoiy bo’limi ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagi natijalar olingan. Chigit kapsulalanmay ekilgan-nazoratda jami 46 dona, ya’ni, 95,8%, ma’danli gil bilan kapsula qilib ekilganda 48 dona, ya’ni, 100% urug’ unib chiqgan. Tajriba sinov sifatida ekilgan dala maydonlaridagi hosildorlik sezilarli darajada yuqori bo’lgan[6]

XULOSA.

Chigitni bentonent loyqasi bilan kasulalab ekishning chigit unuvchanligiga ta’sir bo‘yicha dallaboratoriya va dala tajribalarida ijobiy natijalar olingan. Dala tajribalarida chigit unuvchanligi bentonent loyqasi bilan kapsulalab ekilganda kapsulalanmagan-nazorat variantiga nisbatan 4 foizga, laboratoriya tajribalarida esa 4.2 foizga oshigan. Shuningdek chigitlar 2-3 kun oldin unib chiqgan.

Olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga ko‘ra, chigitlarni kapsulalab ekish chigit unuvchanligini oshiradi, urug‘larni ikki-uch kunga erta unib chiqishini ta’mimlaydi. Bu ko‘rsatkichlar g‘o‘zadan erta va mo‘l hosil olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

- 1.** Дилбар Абдукаюмовна Тунгушева, Сайдулло Болтаев, Ренат Саидович Назаров, “Применение Нетрадиционных Агроруд И Компостов В Хлопководстве” современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования
- 2.** С.М Болтаев, Д.Тунгушова “Нетрадиционные Агроруды Узбекистана И Их Роль В Сох Ранении Плодородия Почв. “ Ўзбекистон Қишлоқ Хўжалиги”,
- 3.** B.M Xolikov, S.O Abduraxmonov, D.Tungushova, SM Boltayev, Abdullayev “Kuzgi bugdoy yetishtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni kullash buyicha Toshkent va Surxondaryo viloyati fermer xo‘jaliklariga tavsiyalar” Tavsiyanoma.-Toshkent
- 4.** DA Tungushova, SO Abdurahmanov, EM Belousov, SM Boltayev “The effect of bentonite mud on the growth, development and yield of cotton” Uzbek Cotton Research Institute. Collection of articles on the basis of reports of the international scientific-practical conference” Scientific and practical bases of increasing soil fertility”(Part I).
- 5.** S Boltayev, OA Kholmurodov, T Khamzaev “Efficiency of approximate organo-mineral composts for soil productivity” Academicia Globe: Inderscience Research 2021 2 (6)
- 6.** <https://www.academy.uz/uz/page/pdf/paxtachilikda-yangicha-yondashuv-chigitni-kapsula-qilib-ekish>
- 7.** <https://agro-olam.uz/28-05-2020/>

INSTITUTGA ASOS BO'LGAN KAFEDRA**Egamberdiyeva Durdona Abduqaxxon qizi**

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti 2-kurs talabasi

egamberdiyevad44@gmail.comIl.rahbar.: **PhD L.Djurayeva****ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o'tgan asrda tashkil topib, hozirda institutga aylangan "Sharq musiqasi" kafedrasining tarixi va ayni kunlardagi faoliyati, istiqboldagi rejalar xususida fikr yurutilgan.

Kalit so'zlar: musiqashunoslik, Sharq, musiqa, san'atshunoslik, maqom.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlardan, betakror badiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rinn egallaydi.

Asarlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan **Shashmaqom** YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilib (2003), hamda uning reprezentativ ro'yxatiga kiritilgani (2008) buni yaqqol tasdig'idir.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Prezident SH.M.Mirziyoyevning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to‘grisida” 2017- yil 17- noyabrdagi PQ-3391-sonli qarori qabul qilindi. Bunga ko‘ra chuqur ilmiy nazariy tadqiqotlar, o‘quv uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio, televide niye, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustozlari va soha olimlari, mutaxassislar ning, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini yoritish yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek milliy maqom markazi, viloyatlar markazlarida maqom ansabllari tashkil etildi. Sobiq Musiqiy sharqshunoslik kafedrasining nomi O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasiga o‘zgartirilib, 2020 yildan hozirga qadar Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tarkibida faoliyat olib bormoqda.

Kafedraning tashkil etilishi o‘tgan asrning qaltis pallalariga to‘g‘ri keladi. XX asrning yirik musiqashunos olimi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulla Karamatov hamda o‘z davrida Kompozitorlar uyishmasi raisi bo‘lgan Ahmadjon Jabborov, yosh o‘qituvchi Otanazar Matyoqubov sa’y-harakatlari bilan 1972 yili Toshkent davlat konservatoriyasida (2002 yildan buyon O‘zbekiston davlat konservatoriysi) “Sharq musiqasi” nomi bilan kafedra rasman bunyod etilgan. Sobiq ittifoq davlatlari orasida birinchi marta tashkil etilgan mazkur kafedra dastlab “Sharq musiqasi” nomi bilan faoliyat yuritgan. Keyinchalik, kafedra asosida “Musiqiy sharqshunoslik”, “An’anaviy xonandalik” va “An’anaviy sozandalik” kafedralari tuzilgan. Bunda F.Karamatovning hissasi katta bo‘lib, bu haqida musiqashunos olim O.Ibrohimov quyidagi fikrni bildirib o‘tgan: “Fayzulla Karomatli milliy musiqiy meros namunalarini ilmiy-nazariy o‘rganish bilangina cheklanmay, balki ularni yosh avlodga amaliy o‘rgatish borasida ham tahsinga sazovor ishlarni amalga oshirgan. Xususan, jonkuyar olimning tashabbusi bilan 1972 yili Toshkent davlat konservatoriyasida “SHarq musiqasi” tashkil etilib, unda O‘rta asr musiqa risolalarini bevosita o‘qib, tadqiqot olib bora oladigan musiqashunos, sharqshunoslarni tayyorlash hamda ustozona musiqaga doir Olti maqom va boshqa murakkab janrlarni

mukammal ijro eta oladigan xonanda va sozanda talabalarni voyaga yetkazish ishlari jadal boshlab yuborilgan edi”¹

Kafedraning bosh maqsadi – o‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligin (o‘zbek musiqasining ustuvor asosi bo‘lgan – SHashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, katta ashula va og‘zaki an’anadagi ustoazona musiqa ijrochiligin amaliy jihatdan o‘rganish, sharqshunos olimlarning arab, fors va turkiy tillarda yaratgan asarlarini tarjima qilib, ularni musiqashunos nuqtayi nazaridan ilmiy sharhlay oladigan manbashunoslardan tayyorlashdan iborat etib belgilangan.

Ilk yillarda kafedrada san’atshunoslik fanlari doktori, professor I.Rajabov “Manbashunoslik” va “Maqom asoslari”, professor A.Jabborov “O‘zbek musiqa tarixi”, kompozitor SH.SHaymardanova “Notalashtirish”, ustoz-san’atkor F.Sodiqov “Dutor va chang ansambli ijrochiligi” ixtisosligi, R.Rajabiy, T.Inog‘omov, M.Muhamedov, S.Taxalov “Tanbur, nay, qashqar rubobi” ixtisosligi, O.Alimaxsumov “An’anaviy ijro” ixtisosligi, Z.Oripov, Z.Nasullayev, K.Avasenov “SHarq tillaridan – fors, arab, urdu”, yosh o‘qituvchilar: O.Matyoqubov va R.Abdullayev “O‘zbek an’anaviy musiqasi asoslari”, “Notalashtirish” va “Folklor amalyoti” kabi fanlardan dars bera boshlaydilar. Kafedrada tahsil olgan o‘zbekistonlik talabalar bilan bir qatorda, Qozog‘iston, Tojikiston Respublikasidan kelib, ilmiy-ijodiy faoliyatini bizda olib borgan xorijiy talabalar ham kelajakda yetuk musiqashunos, mohir san’atkor va xonanda bo‘lib yetishadilar. San’atshunoslik fanlar doktorlari, professorlar A.Nizomov va F.Aziziy (Tojikiston), san’atshunoslik fanlar doktori, professor A.Nazarov, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor R.Yunusov, san’atshunoslik fanlari nomzodlari, A.Jumayev, O.Malkeyeva kabi taniqli olimlar kafedraning ilk bitiruvchilari sifatida tarixga muhrlanganlar.

“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini konservatoriya tarkibida bugungi kunga qadar F.M.Karamatov, O.R.Matyoqubov, Z.T.Oripov, R.Y.Yunusov,

¹Ibrohimov O. Ustoz Fayzulla Muzaffarovich Karomatli haqida so‘z. Qo‘lyozma maqola.

<https://t.me/maqomot> saytida. – B. 5-6.

S.M.Begmatov, I.A.G‘aniyeva, A.R.Zokirov, CH.E.Ergasheva boshqarib kelgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26- maydagi “Madaniyat va san’at sohasidagi jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoni hamda 2020-yil 2-sentabrdagi “Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati inisituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 536- sonli qaroriga muvofiq, Maqom va baxshichilik san’ati sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayoniga o‘qitishning innavatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’at instituti tashkil etildi. Inisitutning ochilishi O‘zbek milliy musiqa san’atini har tomonlama o‘rganish va rivojlantirish yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi.

Mazkur institutga Yunus Rajabiy nomining berilishi bejiz emas albatta. So‘zimizning boshida ta’kidlaganimizdek, milliy musiqamizni yozib olinishida akademik Yunus Rajabiyning hissasi kattadir. Uzoqni ko‘zlab boshlangan ezgu ishlar avlodlar tomonidan munosib davom ettirilmoqda, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Yangi tashkil etilgan inisitutga O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, Turkmanistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich rektor etib tayinlandi. Hozirgi kunda kafedra “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” nomi bilan mazkur institutda faoliyatini davom ettirmoqda. Uni hozirda yosh musiqashunos olma Sh. Berdixanova boshqarib kelmoqda.

Bugungi kunda kafedrada ish olib borayotgan professorlar – san’atshunoslik fanlari doktori, professor Rustambek Abdullayev, san’atshunoslik fanlari nomzodlari, professorlar Ravshan Yunusov, Soibjon Begmatov, Saida Qosimxo‘jayeva, Abduvali Abdurashidov, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari (PhD) Chinora Ergasheva, Laylo Djurayeva, Shaxida Berdixanova, katta o‘qituvchilar Azizjon Zokirov, Xumoyun Xaydarov, Munojat Azamova, Go‘zal Xasanova, Sardor

Tojiboyev, Barno Shamshiyeva, Jur'atbek Sherimmatov, Nasiba Yo'ldasheva, Nodira Xaydarova, Tatiyano Petrenka, Nilufar Botirova, Alisher Egamov, Azizulloh Arol yosh maqomshunoslar va ijrochilarga musiqa san'atining sir-asrorlarini tahlil berib kelmoqdalar.

Kafedrada bakalavriyat ta'lif yo'naliishida – musiqashunoslik asoslari, o'zbek musiqasi tarixi, an'naviy o'zbek musiqasi asoslari, o'zbek maqom tarixi va nazariyasi, maqom solfedjio, aruz va musiqa, xalq musiqa ijodiyoti, doston solfedjio, maqom asoslari, fors tili, arab tili, jahon musiqasi tarixi, solfedjio, garmoniya, musiqa nazariyasi, polifoniya, musiqiy asarlar tahlili, sharq xalqlari musiqa tarixi, radio va telejurnalstika notiqligi, musiqiy nazariy fanlar o'qitish uslubiyoti, zamonaviy musiqa, etnomusiqashunoslik asoslari, musiqashunoslik metodologiyasi; magistratura bosqichida esa – musiqashunoslik, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, zamonaviy garmoniya, etnosolfedjio, sharq xalqlari maqomlari, manbashunoslik, XXI asr jahon musiqa madanyati, XXI asr O'zbekiston musiqa madanyati, zamonaviy musiqa shakli, musiqa uslublari tarixi, maqomot va zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti fanlari olib boriladi.

Kafedra o'z oldiga asosiy vazifa sifatida maqom ijrochiligi va baxshichilik san'ati bo'yicha fundamental, amaliy va ijodiy izlanish hamda tadqiqotlar olib borish, sohada shakllangan ijodiy maktablarning o'ziga xos ijob uslublari va an'analarini qayta tiklash, milliy musiqa san'ati va xalq ijodiyoti yo'naliishlarida o'quv-metodik adabiyotlar yaratish, atoqli bastakorlar, hofiz va sozandalar, baxshilarning ijodiy merosini chuqur o'rghanish va qayta tiklash, shuningdek, mumtoz musiqa san'ati namunalarini notaga ko'chirish, milliy musiqa san'ati, xalq ijodiyoti yo'naliishlardagi xorijiy ta'lif muassasalari va markazlari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish, qo'shma ta'lif dasturlari va ilmiy loyihalarni amalgalashirish kabilarni qo'ygan va baholi qudrat amalga oshirib kelmoqda.

O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi kafedrasini faoliyati misolida yurtimizdag'i islohotlarning bir ko'rinishi xolos. Kafedra tashkil etilganligiga qariyb yarim asr to'lgan bo'lsada, beba ho durdonamiz – maqomlarning nazariy asoslarini, tarixiy

ildizlarini, baxshichilik san'atining ilmiy jihatlarini o'rganishga u qadar kirishilmagan edi. Yuqoridagi siyosiy hujjatlarning ijrosi o'laroq hozirda ommaviy axborot vositalarifa ham maqom tashviqotiga bag'ishlangan bir qator loyihalar bajarilmoqda. Shuningdek, ilmiy salohiyatli yosh olim va olimalar ham sekn-asta ko'paymoqda. Umid qilamizki, yaqin kelajakda Akademiya maqomini olishni rejalashtirayotgan o'quv maskanimizdan chinikam akademiklar – Yunus Rajabiyning munosib vorislari yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Rajabov. Maqomlar. (Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov.) – T.: “San’at”. 2006.
2. O.Ibrohimov. Maqom va makon. – T: Movaraunnahr. 1996.
3. O.Ibrohimov. Ustoz Fayzulla Muzaffarovich Karomatli haqida so‘z. Qo‘lyozma maqola. [https://t.me/maqomot saytida. - B. 5-6](https://t.me/maqomot_saytida. - B. 5-6).

КРЕДИТНАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНЕ И ФАКТОРЫ, ПРЕПЯТСТВУЮЩИЕ ЕГО РАЗВИТИЮ

Худойбердиева Мафтунабону Мехрожевна

студентка 3-курса группы Mn-220

Самаркандский институт экономики и сервиса

Научный руководитель: **Каримова Азиза Махомадризоевна,**

к.э.н., доцент

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: Доступ к финансированию является важнейшим фактором роста и развития МСП во всем мире. Во многих странах МСП сталкиваются с серьезными проблемами, связанными с финансированием своей деятельности. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с препятствиями, с которыми сталкиваются большинство субъектов в ходе своей деятельности. А также сделаны выводы и заключения, способствующие дальнейшему развитию субъектов предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: малые и средние предприятия, кредитование, финансирование, источники финансирования, процентная ставка, краудфандинг, одноранговое кредитование.

Введение. Доступ к финансированию является серьезной проблемой для малых и средних предприятий в Узбекистане, при этом в большинстве случаев банки являются одним из основных источников финансирования.

Малые и средние предприятия (МСП) играют решающую роль в экономике Узбекистана. По данным Министерства экономики и

промышленности, в Узбекистане зарегистрировано более 150 000 МСП, на долю которых приходится около 60% ВВП страны и в которых занято более 70% рабочей силы.² Несмотря на их значительный вклад в экономику, МСП в Узбекистане сталкиваются с рядом проблем, включая ограниченный доступ к финансированию, неадекватную инфраструктуру и бремя регулирования.

Доступ к финансированию является важнейшим фактором роста и развития МСП. Кредитование субъектов данной отрасли может помочь им инвестировать в новое оборудование, расширять свой бизнес и создавать новые рабочие места. Это также помогает стимулировать экономический рост и способствовать развитию предпринимательства. Однако предприятия в Узбекистане сталкиваются со значительными препятствиями для доступа к финансированию, которые включают в себя такие аспекты как: отсутствие залога, высокие процентные ставки и бюрократические препятствия и тд. Таким образом, улучшение доступа к финансированию для МСП имеет важное значение для содействия экономическому росту и создания рабочих мест в Узбекистане.

Несмотря на важность МСП и их вклад в экономику Узбекистана, доступ к финансированию остается серьезной проблемой для многих малых предприятий. Отсутствие доступного финансирования и ограниченный доступ к кредитам не позволяют многим МСП полностью реализовать свой потенциал. Целью данного исследования является выявление факторов, с которыми сталкиваются МСП в Узбекистане при кредитовании своего бизнеса, и предоставление рекомендаций по улучшению доступа к финансированию для этих предприятий.

Методология исследования. Данное исследование базируется на результатах анализа научных трудов в области банковского кредитования предпринимательской деятельности, а также трудов, посвященных финансированию и кредитованию предприятий сферы туристических услуг.

² Ссылка источник (откуда взят материал)

Степень изученности. Над вопросами, связанными с различными формами методов кредитования, занимались многие учёные-экономисты, в частности: М.А.Кривуля, С.В.Федоров, H.Du.Cros, К.А.Лебедев, А.А.Козыбагаров, М.А.Булаев В.Г.Медынский, Н.А.Зайцева, McKercher и др., также отечественных ученых, в частности Ё.Абдуллаев, Ш.Абдуллаева, У.Азизов, И.Алмардонов Дж.Зайналов, И.Рахманов, Д.Таджибаева, Ж.Исаков, Л.Зойиров, Н.Урманова, Т.Маликов, Р.Каюмов и др.

Основная часть. Доступ к финансированию является важнейшим фактором роста и развития МСП во всем мире. Во многих странах МСП сталкиваются с серьезными проблемами при доступе к финансированию, включая высокие процентные ставки, ограниченное обеспечение и бремя регулирования. Для решения этих проблем правительства и финансовые учреждения разработали ряд программ кредитования, направленных на поддержку МСП. Эти программы часто включают сочетание традиционных методов кредитования, таких как банковские кредиты и овердрафты, а также более новые варианты финансирования, такие как краудфандинг и одноранговое кредитование.

Сравнение практики кредитования в развитых и развивающихся странах. Практика кредитования МСП сильно отличается между развитыми и развивающимися странами. В развитых странах МСП, как правило, имеют лучший доступ к финансированию, чем в развивающихся странах, благодаря наличию хорошо развитых финансовых систем и ряда программ государственной поддержки. Напротив, МСП в развивающихся странах часто сталкиваются со значительными препятствиями для доступа к финансированию, включая ограниченное обеспечение и отсутствие кредитной истории. Для решения этих проблем многие развивающиеся страны внедрили новаторские программы кредитования, направленные на поддержку МСП, такие как программы микрофинансирования и выдача государственных кредитов, ориентированных на МСП.

В Узбекистане практика кредитования субъектов предпринимательства исторически была ограниченной, и многие предприниматели полагались на неформальные источники финансирования. Однако в последние годы правительство и финансовые учреждения выступили с рядом инициатив, направленных на улучшение доступа к финансированию, включая создание кредитно-гарантийного фонда и внедрение программ микрофинансирования. Однако, несмотря на эти инициативы, субъекты малого предпринимательства в Узбекистане продолжают сталкиваться с серьезными проблемами в доступе к финансированию, особенно из традиционных источников, таких как банки.

Доступ к финансированию остается серьезной проблемой для МСП как для многих стран мира, так и для Узбекистана.

Проведя анализ практики банковского кредитования нами, были выявлены ряды проблемы, с которыми сталкиваются большинство субъектов малого и среднего бизнеса. В частности, такие как:



Рис.1. Проблемы субъектов малого и среднего бизнеса³

Далее рассмотрим эти препятствия более подробно.

1. Отсутствие залога: МСП часто не хватает залога, необходимого для обеспечения кредитов от традиционных кредиторов, таких как банки.

³ Mahomadrizoevna K. A. Analysis and the need to improve credit support for the development sphere of tourism //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.1 Economical sciences.

2. Ограниченнная кредитная история: многие МСП не имеют достаточно длинной кредитной истории, чтобы претендовать на кредиты от традиционных кредиторов.

3. Высокие процентные ставки: процентные ставки по кредитам для МСП часто выше, чем для более крупных предприятий, что затрудняет для МСП доступ к доступному финансированию.

4. Бюрократические препятствия: процесс подачи заявки на получение кредита и его получения может быть сложным и трудоемким, особенно для МСП без специальных финансовых отделов.

Проведённое нами исследование свидетельствуют о том, что практика кредитования МСП в Узбекистане значительно различается между различными типами кредиторов. Было обнаружено, что традиционные банки имеют более строгие критерии кредитования, уделяя больше внимания обеспечению и кредитной истории. Это часто затрудняло для МСП доступ к кредитам от этих учреждений, особенно если они находились на ранних стадиях развития бизнеса.

Учреждения микрофинансирования, с другой стороны, оказались более гибкими в своей практике кредитования, уделяя больше внимания оценке жизнеспособности бизнеса и характера предпринимателя. Это часто делало их более доступным источником финансирования для МСП с ограниченным обеспечением или кредитной историей.

При сравнении Узбекистана с другими странами становится ясно, что МСП в Узбекистане сталкиваются со значительными проблемами в доступе к финансированию. На кредитном рынке доминируют традиционные банки, которые часто имеют строгие критерии кредитования, что затрудняет доступ МСП к кредитам. Однако введение государственных инициатив, таких как фонд кредитных гарантий, помогло расширить доступ к финансированию для МСП, особенно с ограниченным обеспечением.

Доступ к финансированию имеет решающее значение для роста и развития МСП, поскольку он позволяет им инвестировать в новое оборудование, нанимать сотрудников и расширять свою деятельность. Однако ограниченный доступ к финансированию может сдерживать рост МСП, особенно на ранних стадиях развития.

В ходе нашего исследования нами было выявлено, что большинство субъектов малого бизнеса в Узбекистане сталкиваются с серьезными проблемами при доступе к финансированию, особенно от традиционных банков. Этот ограниченный доступ к финансированию может привести к целому ряду негативных последствий для МСП, в том числе:

1. Снижение роста и конкурентоспособности. Ограниченный доступ к финансированию может сдерживать рост МСП, снижая их конкурентоспособность на рынке.

2. Сокращение инноваций: без доступа к финансированию МСП могут с трудом инвестировать в новые технологии и процессы, что снижает их способность к инновациям и сохранению конкурентоспособности.

3. Ограниченнное создание рабочих мест: МСП являются важным источником занятости во многих странах, включая Узбекистан. Ограниченный доступ к финансированию может ограничить возможности МСП по созданию новых рабочих мест, что приведет к более высокому уровню безработицы.

4. Ограниченнное экономическое развитие: МСП часто рассматриваются в качестве ключевой движущей силы экономического развития, особенно в развивающихся странах. Ограниченный доступ к финансированию для МСП может ограничить общее развитие экономики, поскольку МСП не могут полностью реализовать свой потенциал.

В целом, наше исследование подчеркивает важность улучшения доступа к финансированию для МСП в Узбекистане, а также потенциальные негативные последствия ограниченного доступа к финансированию для МСП и экономики в целом. Улучшая доступ к финансированию для МСП, директивные органы и

кредиторы могут способствовать росту и развитию МСП, создавая рабочие места и стимулируя экономическое развитие.

Результаты нашего исследования имеют важные последствия как для МСП, так и для кредиторов в Узбекистане. Для МСП в исследовании подчеркивается необходимость улучшения доступа к финансированию, особенно от традиционных банков. МСП в Узбекистане должны изучить альтернативные источники финансирования, такие как микрофинансовые организации, краудфандинг или частный капитал. Кроме того, МСП следует рассмотреть возможность улучшения своей практики управления финансами, включая разработку надежного бизнес-плана и повышение своей кредитоспособности, чтобы повысить свои шансы на получение финансирования.

Для кредиторов исследование подчеркивает необходимость более гибкой практики кредитования и разработки инновационных финансовых продуктов, отвечающих особым потребностям МСП. Кредиторам следует рассмотреть возможность снижения строгих критериев кредитования МСП, изучения альтернативных форм обеспечения и повышения прозрачности и доступности кредитных заявок.

Заключение и предложения. Улучшение доступа к финансированию для МСП в Узбекистане имеет решающее значение для роста и развития сектора МСП и экономики в целом. Выполняя изложенные выше рекомендации, директивные органы и кредиторы могут помочь поддержать рост и развитие МСП в Узбекистане, создавая рабочие места и стимулируя экономическое развитие.

Выводы этого исследования имеют большое значение для политиков и практиков, занимающихся кредитованием МСП в Узбекистане. Во-первых, директивным органам следует рассмотреть возможность реализации рекомендаций, изложенных в этом исследовании, для улучшения доступа к финансированию для МСП. Это включает в себя поощрение развития

альтернативных источников финансирования, разработку инновационных финансовых продуктов, повышение прозрачности и доступности, обеспечение финансового образования и обучения, а также укрепление нормативно-правовой базы.

Основываясь на результатах нашего исследования, мы рекомендуем следующие действия для улучшения практики кредитования МСП в Узбекистане:

1. Поощрять развитие альтернативных источников финансирования: директивным органам следует поощрять развитие альтернативных источников финансирования, таких как микрофинансовые организации, краудфандинг и частный капитал, чтобы расширить доступ к финансированию для МСП.

2. Разрабатывать инновационные финансовые продукты: Кредиторы должны разрабатывать инновационные финансовые продукты, отвечающие особым потребностям МСП, такие как гибкие условия погашения, сниженные требования к обеспечению и более низкие процентные ставки.

3. Повышение прозрачности и доступности. Кредиторы должны повысить прозрачность и доступность кредитных заявок, предоставляя четкую и краткую информацию о кредитных требованиях, процедурах подачи заявок и статусе заявок.

4. Предоставление финансового образования и обучения: директивные органы должны обеспечивать финансовое образование и обучение МСП, включая разработку надежных бизнес-планов, повышение кредитоспособности и управление финансовыми рисками.

5. Укрепление нормативно-правовой базы. Директивные органы должны укрепить нормативно-правовую базу для кредитования МСП, включая разработку нормативных актов, регулирующих альтернативные источники финансирования, совершенствование систем кредитной отчетности и сокращение бюрократических проволочек при подаче заявок на получение кредита.

Улучшение доступа к финансированию для МСП имеет решающее значение для роста и развития сектора МСП и экономики в целом. Выполняя изложенные выше рекомендации, директивные органы и кредиторы могут помочь поддержать рост и развитие МСП в Узбекистане, создавая рабочие места и стимулируя экономическое развитие. Необходимы дальнейшие исследования, чтобы лучше понять влияние кредитования МСП на экономический рост в Узбекистане, а также изучить дополнительные методы кредитования и проблемы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Джураев Б. Барьеры для доступа к финансированию для малых и средних предприятий в Узбекистане. Журнал прикладных финансов и банковского дела, 9 (3), (2019). Стр. 75-92.
2. Саттаров К., Баходиров М. Проблемы развития малого бизнеса и доступа к финансовым ресурсам в Узбекистане. Европейский журнал экономики и бизнес-исследований, 6(3), (2020). Стр.126-137.
3. Mahomadrizoevna K. A. Analysis and the need to improve credit support for the development sphere of tourism //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.1 Economical sciences.
4. Karimova A. M. Development of tourism business with the help of bank lending in Uzbekistan // Наука, образование, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты. – 2021. – С. 106-108.
5. Каримова А. Совершенствование банковского кредитования инновационного развития предприятий сферы туризма //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 59-65.
6. Mahommadrezaevna K. A. Sources of financing and factors hindering the development of innovative activities of the sphere of tourism //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2020. – Т. 9.

7. Министерство финансов Республики Узбекистан. (2019). Развитие малого бизнеса в Узбекистане: текущее состояние и перспективы на будущее. <https://www.mf.uz/ru/press-center/news/2980/>

8. Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР). (2020). Расширение доступа МСП к зеленым финансам в Узбекистане. Получено с <https://www.oecd.org/countries/uzbekistan/enhancing-sme-access-to-green-finance-in-uzbekistan-18a43d05-en.htm>

9. Центральный банк Республики Узбекистан. (2021). Стратегия развития финансового рынка на 2021-2025 годы. Получено с <https://cbu.uz/ru/news/financial-market-development-strategy-for-2021-2025/>

BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

Berdiqulova Nigora Raxmonovna

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Biologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

berdiqulovanigora2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Innovatsion ta'lism texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari.

Biologiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lism texnologiyalari.

Ushbu maqolada biologiya fanlarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

Keywords: *klaster, interaktiv, virtual, texnologiya, innovatsiya.*

EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES

ABSTRACT

Innovative education is the possibilities of technology-based education.

Innovative educational technologies used in the teaching of biological sciences. This article talks about the advantages of using information and communication technologies in the teaching of biological sciences.

Keywords: *cluster, interactive, virtual, technology, innovation.*

KIRISH

Dunyoda tabiiy fanlarning insoniyat hayoti va turmush tarzidagi ahamiyati juda katta. Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelayotgan va didaktikada ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar shaxsga yo'naltirilganligiga, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va

boshqarilishiga, shaxsga bo‘lgan munosabatiga, hozirgi zamon ta’lim tizimida hukmronlik qilayotgan an’anaviy ta’limni mazmunan yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qaratilganligiga ko‘ra tasniflanadi. Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida boy tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil qiluvchi metodlar o‘ziga xos ahamiyatga egadir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Innovatsiya” tushunchasi ilk bor XIX asr oxirida paydo bo‘lgan. Innovatsion muammo (innovatsiya mohiyati, innovatsiya jarayonlari tuzilmasi) nisbatan fundamental shaklda qator ilmiy ishlarda aks etgan. Ta’limda innovatsion tadqiqot metodologiyasi sohasida yondashish bugungi kunda A.K.Raximov, J.O.Tolipova, G.S.Ergasheva, L.Qoraxonova, N.I.Taylaqov, U.Sh.Begimqulov, M.Aripov, A.A.Abduqodirov, M.F.Zakirova, N.A.Qayumova, G.N.Yunosova, A.Hayitov, G.O.Ernazarova, X.M.Maxmudova, M.N.Soy, S.Sheraliyev, M.Lutfullayev, X.M.Qurbanov, R.J.Ishmuxamedov kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rishimiz mumkin [2].

R.Ishmuhamedov va M.Yuldashevlarining fikriga ko‘ra innovatsiya (inglizcha-innovation)-yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o‘zgartirish demakdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirish kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanildi[3].

U.Xodjamqulov innovatsiya-muayyan sohaga konseptual o‘zgarishlar, yondashuvlar asosida kiritilayotgan uzoq muddatli va tizimli faoliyat bilan bog‘liq yangilanishlardir degan fikrni bildiradi [4].

G.Ibragimova yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda bilimli mutaxassislarga ehtiyoj tug‘ilishi, bu esa o‘z navbatida ta’lim tarbiya jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qilishi, “Innovatsiya” iborasi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib

“innovatsion”, “yangilik kiritish”, “yangi g‘oya” degan ma’nolarni bildirishini ko‘rsatib o‘tgan [5].

Ta’lim-tarbiya jarayonida bir necha xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, shulardan: an’anaviy, tizimli, texnologik, tadqiqiy, funktsional, kompleks va faoliyatli yondashuvlar farq qilinadi. Jumladan texnologik yondashuv mohiyatan

ta’lim-tarbiya jarayoniga zamонавиу pedagogik texnologiyalar tatbiqini anglatadi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan tushunchalar mazmunida yangicha yondashuv, ya’ni texnologik yondashuv mavjud bo‘lgani bois, rivojlanish bosqichi mohiyatiga ko‘ra “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” deb aytish maqsadga muvofiq keladi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish tadqiqot muammosi doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar, pedagogika va biologiya o‘qitish metodikasi sohasida yaratilgan metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar mazmuni bilan nazariy tanishib chiqish asosida, amaliy tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, tajriba sinov ishlarining samaradorligi va olingan natijalarning matematik-statistik tahlili ishlab chiqildi.

Tanlangan guruhlarda tajriba boshi va oxirida o‘tkazilgan tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha qiymati, samaradorlik koeffitsenti, tajriba va nazorat guruhlaridagi tanlanma dispersiyasi, standart xatoliklari, X ning ishonchlilik oralig‘i, student statistikasi, statistik ozodlik darajasi, kriteriy xulosasi hisoblab chiqildi va har bir guruhlarning sifat ko‘rsatkichlari diagramma tarzida ifodalandi. Tanlangan tajriba guruhlarining sifat ko‘rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan yuqori ekanligi isbotlandi.

2021-2022 o‘quv yilida tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan tajriba va nazorat guruhi o‘quvchilarining tajriba boshidagi sifat ko‘rsatkichlari


Guruh/ mezonlar 13/21 tajriba boshida	Tajriba guruhi (N _T =13)					Nazorat guruhi (N _n =13)							
Rivojlanganlik darajasi	yuqori (5)	yeterli (4)	o‘rta (3)	Past (2)	yuqori (5)	yeterli (4)	o‘rta (3)	past (2)					
O‘quvchilar soni	2	4	7	-	2	3	8	-					
Darajalarning o‘rtacha arifmetik qiymati	$X_T^* = 3,61$					$X_n^* = 3,54$							
Samaradorlik koeffitsenti	$\eta = \frac{X_T^*}{X_n^*} = 1,13$												
Tanlanma dispersiyasi	$D_T = 0,54$					$D_n = 0,56$							
O‘rta qiymatlar standart xatolari	$S_T = 0,73$					$S_n = 0,74$							
X* ning ishonchlilik oralig‘i	$2,88 \leq X_T^* \leq 4,34$					$2,8 \leq X_n^* \leq 4,28$							
Student statistikasi	$T = 1,58$												
Statistik ozodlik darajasi	$K = 24$												
Kriteriy xulosasi	H_1 gipoteza qabul qilinadi												

2021-2022 o‘quv yilida ishtirok etgan tajriba va nazorat guruhi o‘quvchilarining sifat ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan.

2021-2022 o‘quv yilida tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan tajriba va nazorat guruhi o‘quvchilari tajriba oxiridagi sifat ko‘rsatkichlari

Guruh/ mezonlar 13/21 tajriba oxirida	Tajriba guruhi (N _T =13)				Nazorat guruhi (N _n =13)							
Rivojlanganlik darajasi	yuqori (5)	yeterli (4)	o‘rta (3)	past (2)	yuqori (5)	yeterli (4)	o‘rta (3)	past (2)				
O‘quvchilar soni	4	5	4	-	3	5	5	-				
Darajalarning o‘rtacha arifmetik qiymati	$X_T^* = 4$				$X_n^* = 3,8$							
Samaradorlik koeffitsenti	$\eta = \frac{X_T^*}{X_n^*} = 1,05$											
Tanlanma dispersiyasi	$D_T = 0,62$				$D_n = 0,54$							
O‘rta qiymatlar standart xatolari	$S_T = 0,79$				$S_n = 0,74$							
X^* ning ishonchlilik oralig‘i	$3,38 \leq X_T^* \leq 4,62$				$3,06 \leq X_n^* \leq 4,54$							
Student statistikasi	$T = 0,9$											
Statistik ozodlik darajasi	$K = 44,4$											
Kriteriy xulosasi	H_1 gipoteza qabul qilinadi											

Tajriba guruhi o‘quv yili davomidagi samaradorlik ko‘rsatkichi nazorat guruhlari ko‘rsatkichiga nisbatan o‘rtacha 8 foizga yuqori ekanligi statistik usullar yordamida isbotlandi.



1-rasm. O‘quvchilarning 2021-2022 o‘quv yili davomidagi sifat ko‘rsatkichlari diagrammasi.

MUHOKAMA

2021-2022 o‘quv yilida tadqiqot davomida 26-nafar o‘quvchilar ishtirok etgan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarining natijalari o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashning rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlariga asosan tajriba va nazorat guruhida tajriba boshida va tajriba yakunida olingan qiymatlar bilan taqqoslanganida tajriba guruhlarining samaradorlik ko‘rsatkichi nazorat guruhlari ko‘rsatkichiga nisbatan 8 foizga yuqori ekanligi statistik usullar yordamida isbotlandi.

XULOSA

Akademik litseyda va oliy ta’lim bilan hamkorlikda olib borilgan dars jarayonlarida innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish, ya’ni kichik guruhlarda ishlash, individual shug‘ullanish, nostandard testlardan foydalanish orqali o‘quvchilar passiv holatdan faol holatga o‘tganligi va tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi oshganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2017y. 23 oktabr.
2. Raximov A.K. Uzluksiz ta’lim jarayonida biologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari // Xalq ta’limi. - Toshkent, 2017. - №4. 80-83 b.
3. Ishmuhamedov R. va Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma. –Toshkent. “Nihol nashriyoti” 2013. - 10 b.
4. Xodjamqulov U.N. “Maktab laboratoriya”. uslubiy qo‘llanma. chirchiq 2019. 3-29 b.
5. Ibragimova G. Umumta’lim maktablarining o‘quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni. metodik qo‘llanma. - Toshkent.”Abu matbuot- konsalt” 2014 y. – 27 b.

O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATI VA ULARNING HUQUQIY ASOSLARINI TASHKIL ETILISH TARIXI

Qoraqulov Doston To'lqin o'g'li

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasining siyosiy tizimida muhim institut hisoblangan siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va davlat tomonidan huquqiy mustahkamlashi, siyosiy faoliyatining kengayishi, ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanish tarixi bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Siyosiy-partiyalar, ko'ppartiyaviylik tizimi, huquqiy madaniyat, siyosiy tashkilot, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosatshunos va tarixchi olimlar.

KIRISH

Dunyo demokratik boshqaruv tizimida siyosiy partiyalar va ularning faoliyati tarixi haqida gap ketar ekan, siyosiy partiyalarning davlat boshqaruv tizimidagi o'rni va roli juda ham ahamiyatlidir. Siyosiy partiyalar aholining huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tashini hamda ularning aholining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi, fuqorolarning siyosiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga doir faoliyatini, qonunchilik va ijro hokimiyatiga ta'sir etishi inobatga ayni bugungi demokratik fuqarolik jamiyati shakllantirishdek maqsad va muddolarimizga mos keladi. Tarixdan ma'lumki siyosiy partiyalarning ilk ko'rinishi, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar sifatida namoyon bo'la boshlagan. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etib, hukumatning vakillik va

ijro etuvchi muassasalarini shakllantirib kelgan.

Dastlabki siyosiy partiyalar tarixi bilan tanishar ekanmiz 17 – 18-asrlar inqiloblari davrida paydo bo‘la boshlaganligini ko‘rishimiz mungkin. Ammo siyosiy tashkilot darajasigacha bo‘lgan vaqtлага qadar ham soda ko‘rinishlari tarixda namoyon bo‘la boshlaganligini ko‘rishimiz mungkin. Siyosiy partiyalarga o‘xshash jamoa va tashkilotlar qadimdan mavjud bo‘lgan. Misol keltiradigan bo‘lsak Afina geteriyalari, Rim optimat va populyarlari antik davrda siyosiy partiyalar vazifasini bajargan. Siyosiy partiyalarning universal shakli asosan, qarindoshlik aloqalari bilan bog‘langan kishilar guruhi va maxfiy tashkilotlar ko‘rinishida ham bo‘lgan (Yorklar va Lankerlar – o‘rta asrlar Angliyasida, Ali tarafдорлари – o‘rta asrlarda Arabistonda).

Ammo o‘tmish bilan bugungi hayotimizni taqoslab, tahlil qiladigan bo‘sak, bugungi jamiyat hayotida bo‘layotgan global o‘zgarishlar va inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash borasidagi muammolarni tobora chuqurlashib borishi turli xil siyosiy mafkuralarga ega bo‘lgan siyosiy partiyalarning ko‘payishi va bir-biri bilan raqobat qilishi mobaynida o‘z oldiga yangi-yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Siyosiy partiyalarning bugungi kundagi ko‘rinishi eng maqbul ko‘rinish sifatida tan olinmoqda.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritmaguniga qadar, sobiq ittifoq davrida yagona (manopol) komunistik partiya hukumronligi yillari ko‘p partiyaviylikka umuman yo‘l qo‘yilmaganligi barchamizga ayon. Bu bugungi demokratik tizimga solishtirib taxlil qiladigan bo‘lsak, davlat boshqaruв tizimida partiyalar o‘rtasida sog‘lom raqobat yo‘qligi, insonlarning turli qarashlari inobatga olinmaganligini demokratiya, na inson huquqlarining kafolatlanishiga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rib o‘tishimiz mungkin.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng davlat boshqaruв tizimida siyosiy partiyalarning tashkil etilishi va uning maqomi va huquqiy asoslarining yaratilishi, ularni davlat hokimiyati tizimidagi o‘rnini oshirish, parlament va deputatlik so‘rovi institutidan keng foydalanish bo‘yicha keng qamrovli chora-

tadbirlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mungkin. «Xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatida siyosiy partiyalar guruhlarining rolini kuchaytirish, ayniqsa, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi vakolatlarini kengaytirish» masalasi dolzARB ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Davlat hokimiyatida, ayniqsa, uning mahalliy organlaridagi ishtirokini tashkil etishga oid xorijiy tajriba va bu borada dunyo ijtimoiy fanlarida shakllangan huquqiy g‘oyalar hamda xalqaro huquq normalaridagi qoidalar asosida mamlakatimizda ushbu soha faoliyati tarixini o‘rganish bugungi kundagi dolzARB masalalardan biri ekanligini tasdiqlamoqda. Dunyoning aksariyat ko‘pgina mamlakatlarida siyosiy partiyalar faoliyati tarixi masalalari yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, partiyalarning tashkil topishi, bosqichma-bosqish faoliyatining shakllanishi va rivojlanish tarixi, davlat boshqaruv tizimida tutgan o‘rni masalalariga oid muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo‘nalishi sifatida alohida e’tibor berilmoqda.

Shuningdek, yurtimizda mustaqillik davrida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida «siyosiy partiyalar faoliyati va uning shakllanishi va rivojlanish masalalarini ko‘rib chiqish, ularni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilab olindi. Bularga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992), «Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida»gi (1993), «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi (1996) qonunlari, 2017-yil 8-avgustdagи PF-5185-son «O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot maqolasiga muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligidagi siyosiy partiyalarga doir qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ularda siyosiy partiyalarni to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratilgan. Bu huquqiy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi[1], “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi[2], “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida” gi[3] va shu sohaga bevosita aloqador o‘nlab normativ-huquqiy xujjatlarda aksini topgan. Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo‘lgan, siyosiy partiyalarning faoliyati borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari hamda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida har tomonlama va tizimli tarzda yoritib berilgan. Ularda O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida jamoatchilik nazoratining o‘rni va ahamiyati hamda bu boradagi dolzarb masalalarga oid konseptual g‘oya va fikrlar mavjud. Shuningdek, bir qancha huquqshunos, siyosatshunos va tarixchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, o‘zbek olimlaridan N.Dehqonov[4, 156], N.S.Rasulova[5, 13] A.X.Saidov, A.Rahimov, Sh.Fayziyev, V.P.Belyaev, B.Ismailov, I.Bekov, Sh.N.Nazarov, J.M.Abdullaev, Sh.Bafaev, J.Chorshanbiev, I.I.Tolibov, X.Mamatov, I.R.Bekov, D.Q.Axmedov, E.X.Halilov, S.A.Abbosxo‘jaev, M.Qirg‘izboev, O.T.Husanov, Sh.Sh.Yariyev[6], xorijiy olimlar qatorida A.Yudin, V.V.Lapayeva, M.Dyuverji, S.E.Zaslavskiy va boshqalarni keltirishimiz mumkin[7, 6-9].

NATIJALAR

Tadqiqotning ilmiy natijalaridan ko‘p jildli “O‘zbekistonning eng yangi tarixi”da siyosiy partiyalar faoliyati tarixini bilan qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga taqdim etiladi.

Ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalarini rivojlanishini bosqichma-bosqich tahlil qilish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda «Konstitutsiyaviy huquq», «O‘zbekistonda hokimiyat vakillik organlari» faoliyati tarixini o‘rganishda ilmiy-qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, oliv o‘quv yurtlarida maxsus kurslarni tashkil etshda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning tashkil topishi va uning siyosiy hayotimizda asosiy o‘rinni egallashi borasidagi qarashlar fuqarolarimizning huquqiy madaniyatini yuksalishi va davlat boshqaruv tizimida faol ishtirok etish masuliyatini shakllantiradi. Mahalliy vakillik organlarining faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek siyosiy partiyalar amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

MUHOKAMA

Mustaqillikning ilk kunlaridan istiqlolimizni mustaxkamlash maqsadida ko‘plab qonun, qaror va farmonlar qabul qilindi. Dunyoning etakchi mamlakatlarining siyosiy boshqaruv tizimi o‘rganib chiqildi va milliy qadiriyatlar hisobga olinib amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etildi;

tarixdan ma’lumki mustaqillikka qadar milliy siyosiy tizimda kamchiliklar talay bo‘lganligini va buning asosiy sababi milliy istiqlol yani mustaqillikning yo‘qligi, yuqoridagi islohotlarning amalga oshirishda to‘siq bo‘lganligini keng ommaga yetkazib berish tadqiqotimizning asosiy va dolzarb masalasi hisoblanadi;

davlatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi siyosiy partiyalarning tashkil topishi va ularning huquqiy maqomining belgilanishi, shuningdek ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va ularning sog‘lom raqobati asosida xalqimizning demokratik qadiriyatlari hisobga olingan;

siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlari saylovida ishtiroki tahlil qilinishi natijasida yurtimizda xalq nomidan ular saylab qo‘ygan vakillar qaror qabul qilinishi yillar davomida bosqichma-bosqich isloh qilinishi ko‘ga tashlanadi;

siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida nufuzining ortib borishi, eng avvalo xalqaro huquq va tamoyillar va etakchi dunyo mamlakatlarining tajribasidan kelib chiqib modernizatsiya qilinishi bugungi kunning talabi hisoblanadi.

XULOSA

O‘tmish bilan bugungi kunni bir-biriga solishtirib, taxlil qiladigan bo‘lsak milliy mustaqillikka (1991-yil 31-avgust) qadar siyosiy tizimda juda ko‘p kamchiliklarimiz borligi ayon bo‘lib qolmoqda. Siyosiy tizimni, uning muhim subyektlardan biri bo‘lgan siyosiy partiyalarning mavqeい, o‘rni va rolini tarixiy-izchillik asosida ilmiy tadqiq etish asnosida, ularning vujudga kelishi, muhim siyosiy institut bo‘lib shakllanishi, rivojlanishi va ular o‘rtasida raqobat paydo bo‘lib, ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tish masalalarini ochib berish mungkin[8, 13-25].

Respublikamizda shakllangan siyosiy-partiyalar konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining rivojlanish tarixini taxlil etib, uni quydagi bosqichlarga bo‘lib, tadqiq etildi:

- Birinchi bosqich 1991-1995 yillar.
- Ikkinci bosqich 1996-2006 yillar.
- Uchinchi bosqich 2007-2016 yillar.
- To‘rtinchi bosqich 2017-yildan hozirgi kunga qadar.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining rivojlanish bosqichlarida sohada muammo va kamchiliklarni aniqlanishi natijasida ularning yechimi topish va huquqiy tomonlama takliflar berish mungkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.04.2004 yildagi 617-II-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.02.1991 yildagi 223-XII-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Kengashi qarori, 06.02.2003 yildagi 459-II-son.
4. N.Dehqonov. O‘zbekistonda mahalliy va hokimiyati vakillik organlarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Monografiya.-T.: “IQTISODIYOT”, 2015. – 156-bet.
5. N.S.Rasulova. O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi: muammo va yechimlar. (1991-2008 yillar) tarix fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2010. – 13.B.
6. Sh.Sh.Yariyev. SIYOSIY PARTIYALARING JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDAGI ROLINI KUCHAYTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI. Konstitutsiyaviy huquq; ma’muriy va moliya huquqi; davlat va huquq nazariyasi va tarixi Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2014.
7. Saidov A.X. Parlament nazorati nazariyasining dolzarb muammolari // Falsafa va huquq. –T., –B.6-9.; Rahimov A. Parlament so‘rovi – parlament nazorati institutining muhim yo‘nalishi // Demokratlashtirish va inson huquqlari. –T., 2007. – №2. –B. 61–63
8. Fayziyev Sh. Parlament nazoratining tushunchasi va asosiy yo‘nalishlari: huquqiy ta’minlash masalalari // Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari: Ilmiy-amaliy seminar materiallari / Mas’ul muxarrir F.X. Otaxonov. – T., 2005. –B. 13–25.

O'ZBEK TILI PUNKTUATSIYASINING TAMOYILLARI VA USLUBIYATI

Xolnazarova Sitora Xolmurodova

TerDu 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Omonturdiyev Nurali Rashidovich**

f.f.f.d(PhD).

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tinish belgilarining tamoyillari va uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Differensiya, mantiqiy tamoyil grammatik tamoyil, diakritik belgilar. Uslubiy va differensiatsiya (farqlash), punktuatsiya va AT.*

Kirish: Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birlklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'limgan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida punktuatsiya belgilari va ularning tilshunoslikda tutgan o'rni, ahamiyati, hali o'rganilmagan tomonlarini tahlilga tortishni maqsad qildik. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ilmiy manbalarda, o'quv qo'llanmalarida tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy-grammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) tamoyillari asosida belgilanishi ta'kidlanadi. Bunda mantiqiy-grammatik tamoyil nutqning semantik grammatik tomonini yozuvda to'g'ri ifodalashga qaratilgan bo'lsa, differensiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarining

qo'sh holda qo'llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak bo'lganda, ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo'llanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik to'g'ri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgisi bo'lmaydi. Zarurat tug'ilganda, har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin.

Punktuatsiya, yozuvning matn bo'limlarini va gaplarini aniqroq qilish uchun belgilar yoki tinishlar qo'llashni anglatadi. Quyidagi belgilar va ularning qo'llanish tartibi turli xil punktuatsiya turlari uchun o'zaro farq qiladi:

1. Nuqtalar (.) - Matn bo'sh joyida yoki jumladan keyin qo'yiladi va biror fikrning tugaguncha yoki natijasiz to'xtab qolishini ifodalaydi. Masalan: Bugun ko'nglim sog'oldi.

2. Vergul (,) - Gap yoki jumladan so'ng kelgan qisqa fikrlarni ajratish uchun qo'yiladi. Masalan: U qiz yoshida, juda ham hamjihatdir.

3. Nuvotonlik (;) - Gap yoki jumladan so'ng kelgan kuchli fikrlarni ajratish uchun va uzun matnlarda boshqa nuqtalash belgilari bilan birlikda qo'yiladi. Masalan: Men ko'nglimni sog'otishga harakat qildim; ammo bundan xursand bo'lmadim.

4. Dvoetochie (:) - Gap yoki jumladan so'ng kelgan maqsadli fikrlarni, biror narsani tushunish uchun yoki matnning ro'yxatlarini to'g'ri kelish uchun qo'yiladi. Masalan: Unda barcha zaruriy elementlar bor: chuqurmiq, yog', sut, qovun va hokazo.

5. Chiziq (-) - So'zlar orasida, yozuvning biror so'ziga ishonaslik qilish uchun, so'zlarini kengaytirish uchun yoki matnning turli qismlarini ajratish uchun qo'yiladi. Masalan: 3-4-sonli avtobus.

6. Sitatlar (" ") - O'zida bitta yoki bir nechta so'z yoki jumlan o'z ichiga olgan va sitat qilinayotgan qismni ifodalash uchun qo'yiladi. Masalan: "Men darsdan kelib chiqdim," dedi o'qituvchi.

7. Kichik qavs (‘) - Yozuvda ishlatiladigan rasmlar yoki yozuvni tushunish uchun yoki ma'nosi uzoq bo'lgan so'zlarni ajratish uchun qo'yiladi. Masalan: Men o'qishni juda ko'p yaxshi ko'raman, aytganida 'ko'raman' so'zini yaqinlikda ko'rsatib turadi.

8. Qo'shma belgisi (+) - Yozuvda qo'shma amal qilish uchun, tashqi matnlar, ma'lumotlar yoki sonlar kabi xus

Muayyan tildagi punktuatsiya an'analarining mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarning ijodi hamda tinish belgilarining qo'llanish qoidalarini umumlashtiruvchi va tartibga soluvchi tilshunoslar faoliyati katta ahamiyatga ega. Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o'rganilishi Fitrat, S.Ibrohimov, H.G'oziyev, O.Usmonov, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog'liq. Munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilar) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. Tinish belgilarning yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim - tinish belgilar miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lмаган turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilarning asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir. Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq.

Ularning aksariyati 19-asrning 2-yarmida ayrim gaz va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan. 8 Tinish belgilari o'z vazifasiga ko'ra, 2 ga bo'linadi: a) chegaralovchi tinish belgilari - muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umuman gapning chegarasini bildirish, biron bir gap bo'lagini intonatsion mazmuniy jihatdan ajratib ko'rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomi qamrab olingan, shuningdek, yozuvchi (so'zlovchi)ning subyektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi tinish belgilari qavs, qo'shtirnoq, yagona qo'shaloq belgi sifatida qo'llanuvchi vergul, ayni shu vazifadagi tire; b) ajratuvchitinish belgilari - mustaqil gaplarni, ularning qismlari (bosh va

ergash gaplar, bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning predikativ qismlari)ni, gapning uyushgan bo‘laklarini, birgalik ergashishli qo‘shma gaplarni, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini, nutqning bo‘linganligini ko‘rsatuvchi tinish belgilari nuqta, so‘roq va undov belgilari, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, ko‘p nuqta.

Punktuatsiyaning dolzarb muammolari.

Punktuatsiya va axborot texnologiyalari. Globallashuv davrida axborot texnologiyalari kun sayin hayotimizdan chuqur o‘rin egallamoqda. Bugun yozma nutq deyarli axborot texnologiyalari orqali amalga oshmoqda. Biron matn yoki xabarni elektron holatda yozar ekanmiz, bevosita tinish belgilariga ham murojaat qilamiz. Ba’zan elektron matnda so‘zlar bir-biriga qo‘shilib qoladi va shunda tinish belgilarning o‘rni qanchalik muhim ekanligi amalda ko‘rinadi. Gapning boshi, oxiri, ega-kesimi qayerdaligini bir-biriga yopishgan so‘zlardan darhol anglash juda qiyinchilik tug‘diradi.

Tadqiqotchi L.Ermatov punktuatsion tizimga oraliq belgisi terminini kiritishni taklif qilgan bo‘lib, bu masalaga “O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti” nomli dissertatsiyasida alohida diqqat qilgan. Dissertatsiyasida punktuatsiya bilan bog‘liq terminlar, ularning taraqqiyoti hamda ona tili darsliklaridagi ayrim tinish belgilar haqida ham asosli fikrlar aytildi. Masalan:

“O‘rni kelganda, tinish belgilari yuzasidan bir mulohazani aytib o‘tish joiz. Ma’lumki, gap tarkibidagi so‘zlar bir-biridan ajratib yoziladi. Masalan, Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. (Maqol) Agar shu gapdagi so‘zlarni Yaxshotgabirqamchi, yomonotgamirigqamchi tarzida aj ratmay yozsak, gapni o‘qish qiyinlashadi. Jumladagi so‘zlarni yozishda ular orasida masofa tashlanadi va bu masofa so‘zlarni oson o‘qishga xizmat qiladi. Boshqa tinish belgilari ham shunday yoki shunga yaqin vazifani bajaradi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda “oraliq belgisi” terminini joriy etish kerak. Shu kungacha ikki so‘z orasidagi masofa (ajratib yozish) haqida tushuncha bor-u, lekin uni atovchi termin yo‘q. To‘g‘ri, bu yerda hech qanday “belgi”, ya’ni tinish belgisi amalda ko‘rsatilmaydi, biroq ikki so‘z orasida

saqlanadigan masofa “oraliq belgisi” sifatida talqin etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi”.

Bu o‘rinda aytish kerakki, kompyuter lingvistikasi tarmog‘ining keskin rivojlanishi tinish belgilari taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu tinish belgilarining elektron matnlarda avtomatik qo‘llanishi bilan bog‘liq masalalarni oydinlashtirishni ham taqozo etmoqda. Ma’lumki, kompyuter tilida mavjud bo‘lgan punktuatsion me’yorlarko‘pgina Yevropatillari uchun umumiylar bo‘lgan qonuniyatlar asosida ishlangan. Mutaxassislar to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bu hodisalar kompyuter lingvistikasi hamda o‘zbek tilining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib tekshirilgandagina ilmiy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilinadi.

Tinish belgilarining axborot texnologiyalaridagi o‘rni masalasini o‘rganish zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi muammolaridan biridir.

Punktuatsiya tamoyillari tinish belgilarning qanday usul va tartibda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Shuning uchun tinish belgilarining qo‘lanishidagi barcha qonun-qoida va tartiblar punktuatsiya tamoyillari asosida belgilanadi. Punktuatsiya tamoyillari tinish belgilarining tizimliligini ta’minlaydi, og‘zaki nutqning mazmuni, qurilishi va intonatsion xususiyatlarini yozma nutqqa ko‘chirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nurmonov A. Hozirgi ozbek adabiy tili .T. Ilm ziyo – 2013.
2. Jamolxonov H. Hozirgi ozbek adabiy tili . T. “Talqin” 2005.
3. Gulomov A. Ozbek tili punktuatsiyasi “Oqituvchi” T. 1992.
4. Hamrayev M.A Ona tili. T. 2007.

FITRAT – SHE’RIYATIDA VAZN VA RITM MUAMMOSI

Shoturayev Farhod Sherali o‘g‘li

O‘ZMU jurnalistika fakulteti

adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2 -kurs magistranti.

E-mail: shoturayevfarhod@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada XX asrda O‘rta Osiyoda yetishib chiqqan ijodkorlar orasida eng faollaridan biri, ijodning barcha sohalarida barakali ijod qilgan Abdurauf Fitrat desak xato bo‘lmasa kerak. Shoir, adib, dramaturg, muarrix, munaqqid, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos, mutarjim, mutafakkir-faylasuf, jamoat arbobi, siyosatchi, pedagog - bir o‘zida shuncha sifatlarni jam etgan Abdurauf Fitrat she’riyatga doir ilmiy xulosalari va tadqiqotlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ritm, vazn, obraz, talqin, shakl.

Abdurauf Fitrat talabalik yillaridayoq “bir devon bo‘lishga arzirli” (Sadiddin Ayniy) she’rlar yozib ulgurgan. U dastlab o‘z she’rlariga “Mijmar” (“mushk-anbar kabi turli xushbo‘y narsalarni solib tutatiladigan idish (manqal)”)⁴ taxallusini qo‘yadi. Sadiddin Ayniyning yozishiga ko‘ra: “Intiboh (ogohlilik, g‘aflatdan uyg‘onish)⁵ davridan oldin ham g‘azal va qasidalar yozgan bo‘lsa-da, ammo ularda bugungi she’rlaridagi sayqal, yonish va kuyish uchramas edi”⁶.

Fitrat jadid sifatida tanilgan, o‘z asarlaridagi g‘oyalar bilan mavjud tuzum yuragiga vahima solar edi. Shuning uchun Said Olimxon uning she’rlarini Buxoroda nashr etishga ruxsat bermaydi. Siyosiy taqiblar

⁴ Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S.Ibrohimova. – T., G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973 yil. – 348-bet.

⁵ O’sha manba, 276-bet.

⁶ Iqtibos ushbu manbadan olindi: Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. – T., A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil. – 71-b.

tufayli “Sayxa” (na’ra, da’vat, bongso‘z) to‘plami hijriy 1329, milodiy 1911-yilda Istanbulda talaba shoirning o‘z hisobidan bosiladi. Fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyevning qayd etishicha, bu to‘plam hozir Istanbul dorilfununi kutubxonasida saqlanadi, uning muqovasiga “Fitrat. Sayha. Milliy she’rlar” deb yozilgan bo‘lib fors tilida arab alifbosida chop etilgan. Undan tanlab olingan o‘ndan ortiq she’rlar “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil iyul oyi sonlarida e’lon qilingan. To‘plamda bu she’rlarning har bandidan keyin turk tilida uning mazmuni ham bayon etilgan⁷.

Misol: Bozam ba she’r oftoda havoyi go‘reston, Par mizanad dilam, yag‘zoyi go‘reston. Mazmuni: Boshimga yig‘lash havasi tushdi, Qanot urdi yuragim yig‘i osmonida. Turk olimi Mehmed Sarayning ta’biriga ko‘ra, “Istanbulga kelib, turkchi millatparvar bo‘lgan Fitrat” forsiy she’rlarini Turkiya aholisi ham tushunishi uchun mana shunday yo‘l tanlagan.

Zamondoshlarining yozishiga qaraganda, vatanparvarlik she’rlari to‘plami bo‘lgan “Sayxa”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, balki rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Turkiston general gubernatori gazetaning bu sonlarini man’ qilish bilan qanoatlanmay, tez orada uni yopib qo‘ygan. Sabab shu ediki, “bu she’rlarda Vatan mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi”⁸.

Fitratning she’rlari taqiqlab qo‘yilganiga qaramay Qrim va Qozon turklari orasida, G‘arbiy Turkiston, Eron va Germaniya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi, jamiyatning hamma tabaqalari orasida qiziqish bilan o‘qildi.

Fitratning she’riy ijodi haqida gapirganda, uning faqat “Sayxa” to‘plami haqida gapirish biryoqlamalik bo‘ladi. Chunki Fitrat o‘zbek tilida

⁷ Q.: yuqoridaq manba, o’sha sahifa.

⁸ Xo‘jayev F. Buxorodagi inqilob va O’rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir // Tanlangan asarlar. Uch tomlik.1-t. – T., Fan, 1978. – 98-99-b.

ham she'rlar yozgan. Uning o‘zbek tilidagi ko‘pgina she’rlari 20-yillarda vaqtli matubot sahifalarida, “Inqilob”, “Qizil qalam” to‘plamlarida chop etilgan. 1922-yilda nashr qilingan “O‘zbek yosh shoirlari” majmuasidan esa shoirning 10 dan ortiq she’rlari joy olgan. Bundan tashqari, “Hind ixtirollchlari”ning Berlin nusxasida (1923-yil) Fitratning “bosilgan va bosilmoqda bo‘lgan” asarlarining ro‘yxati berilgan. Unda shoirning e’lon qilinmagan turkcha she’rlar kitobi “Uchqun” haqida ma’lumot beriladi. “Abulfayzxon” fojiasining Moskva nashrida shoir Fitratning “Uchqun” she’rlar kitobi sotuvga chiqqani xabari keltiriladi. Hatto kitobchaning narxi ham ko‘rsatilgan. Biroq bu to‘plam, H.Boltaboyevning qayd etishiga ko‘ra, na Moskva, na Sankt-Peterburg kutubxonalarida, na xorijda, na shoirning o‘z yurtida saqlanayotgan asarlari orasidan bu kungacha topilmagan. Ehtimol, bu she’riy majmua biror kitobxonning qo‘lida, shaxsiy kutubxonalarda mavjud bo‘lishi va vaqtি-soati bilan topilishi mumkin.

Fitrat she’riyati, shoirning o‘z tili bilan aytganda “rubobiy she’rlari” nafis va buyuk Sharq she’riyatining bor go‘zalliklaridan to‘yingan, uni o‘ziga xos tarzda ichdan yangilashga kamarbasta she’rlardan tarkib topgan. Bu haqda Fitratning zamondoshi va vatandoshi Sadriddin Ayniy shunday yozadi: “Fitratning she’riyati haqida yana shuni aytish kerak: shoir o‘zbek adiblari ichida birinchilardan bo‘lib folklor shakllarida she’rlar yozadi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozmashe’riyatimiz sohasida novatorlik edi”⁹.

Fitrat adabiyotshunos olim sifatida Sharq she’riyatining jozib xislatlarini aksariyat ilmiy asarlarida tahlil etgan bo‘lsa, shoir sifatida she’rlarida o‘sha jozibaning o‘z zamonidagi nozik tovlanishlarini ko‘rsata bildi.

⁹ Ayniy S. Ta’rifi inqilobi Buxoro. – Dushanbe, Adib, 1987. – Sah. 47.

20-yillarning ayovsiz tanqidchilaridan biri Abdurahmon Sa'diy “Behbudiy va uning tegrasiga yig‘ilgan yozg‘uchilar” maqolasida shoir Fitratning o‘zbek she’riyati rivojiga qo‘shtan ulushi haqida gapirib, “Hozirgi o‘zbek she’riyatida Fitratning xizmati uning tili va uslubida ko‘rinadi, u she’riyatda arab va fors so‘zlariga yo‘lni bekitdi, o‘zbek she’r tuzilishining rivojlanish yo‘llarini belgilay borib, ko‘pgina yosh shoirlarni o‘zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to‘plab, ularga til va uslub yog‘idan yo‘l ko‘rsatmoqdadir” deb yozadi¹⁰.

Temur Xo‘ja o‘g‘li Izmirda chop etilgan “O‘zbeklar va o‘zbek adabiyoti” deb nomlangan kuzatishlarida: “Hijo vaznli va to‘rtliklardan qurilmish chog‘dosh o‘zbek she’rining boshlanmasinda rus adabiyotining ta’siri juda kamdir.... Chog‘dosh o‘zbek she’rining vujudga kelishida Abdurauf Fitrat 1918-yilda tuzgan “Chig‘atoy gurungi” nomli yozuvchilar uyushmasining foydasi katta bo‘ldi” deb yozgan.

Fitratning turk tili va adabiyoti ravnaqidagi xizmatini Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, Edvard Ollvort, Boymirza Hayit, Mehmed Saray, Yusuf Avji kabi xorijlik olimlar ham o‘z ilmiy ishlarida xolisona ko‘rsatib o‘tganlar. Bu manbalarda Fitrat dramaturg va olim, nosir va publisist sifatida tilga olinishi barobarida, unga doim “shoir” sifatlashi qo‘sib aytilganki, bu shunchaki shaxsiy munosabatning belgisi bo‘lmay, uning ijodidagi shoirlilik iste’dodiga alohida hurmat nazari bilan qaraganliklarining alomati hamdir.

Xo‘sh, shunchalik zarif, shunchalik pafosi baland she’rlar yozgan Fitrat she’r va shoirlikni qanday tushunar edi? Buning uchun uning aynan shu mavzuda bitilgan maqolasini ko‘zdan kechirishi lozim bo‘ladi.

Fitrat iste’dodli shoirlilik bo‘lish bilan birga she’riyat nazariyasining nuktabin tadqiqotchisi ham edi. U 1919-yilda “She’r va shoirliq”

¹⁰ Iqtibos ushbu manbadan olindi: Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – 73-b

maqolasini yozadi. Bu maqola yozilgan paytda hali chuqur nazariy umumlashmalar chiqarilgan ilmiy asarlar yaratilmagan, yangi tizim maktablari uchun qo'llanma xarakteridagi sodda darslik, qo'llanmalar yaratilayotgan edi. keyinroq, 20-yillarning boshlarida Cho'lponning "Sho'rolar hukumati va sanoyi'i nafisa", Abdurahmon Sa'diyning "Go'zal san'at dunyosida" maqolalari, Vadud Mahmudning "Bugungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" turkum maqolalari vujudga keldi. Lekin bular Fitrat maqolasidan ancha keyin yaratilgan.

Maqola Fitrat tomonidan 1918-yilda asos solingan "Chig'atoy gurungi" tashkiloti talab-ehtiyojlari zaminida yozilgan bo'lib, bu adabiy-madaniy jamiyat "Chig'atoy hududi" deb nom olgan geografik birlikning tub yer egalari sanalgan Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning madaniyati, adabiyoti, tarixi, til va imlo masalalarini atroflicha o'rganishga kirishgan dastlabki ilmiy jamiyat edi.

Fitrat o'z maqolasida she'r nazariyasidan bahs yuritishdan avval turkiy xalqlarda she'rning paydo bo'lishi va ular she'r deb qanday san'atni tushunganlaridan so'z ochadi: "she'r va shoirliq degan so'zlar bizda yangigina narsa emas. Turk ulusi o'z borlig'ini ochung'a ko'rsatkali she'r va shoirliqni bilibgina kelganlar". Dunyodagi eng ko'hna xalqlardan sanalgan turkiylarning arab istilosiga qadar she'rsizligidan gapirmoq – uni bir madaniyatsiz, o'tmishi yo'q xalq deyish bilan teng edi. Shuning uchun Fitrat dalillar asosida: "Madaniy bir ulusning she'rsizlig'in so'ylamak esa, gupurub turgan bir kishining jonsizlig'ina ishonmak kabi kulunchdur" deb oddiy haqiqatni bayon etish bilan "turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong'li bir hayot kechirganlar", "turklarning musulmonliqdan burun ham o'z she'rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi" degan xulosani aytgandan keyingina she'rga ta'rif beradi. Ammo oldin she'rga berilgan boshqa ta'riflarni "taftish" qilib, she'rga vazn, qofiya, badiiy san'atlar singari shakliy elementlar orqali berilgan ta'riflarni tanqid

qiladi. U shunday yozadi: “7-8 so‘zni belgili bir vaznda tizib, ketinda belgili bir so‘zni qofiya qo‘ymoq bilan she’r orasinda yerdan ko‘kkacha ayirma bordir”. Shundan keyin Fitrat o‘z-o‘ziga she’r nadur? – degan savolni qo‘yadi va javob beradi: “She’rda kishilarning qonini qaynatg‘uvchi, singirlarini o‘ynatg‘uchi, miyasini titratguchi, sezgusini qo‘zg‘atguchi bir kuch, ma’naviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi bo‘lmagan so‘z “vazn” va “qofiya”si bo‘lsun, she’r bo‘la olmaydur”. Ko‘rinadiki, Fitrat she’rda shaklni emas, ma’no-mazmunni, pafosni, fikrni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Vazn va qofiya esa mana shu ulkan mazmunning, mana shoirona o‘tning tashqi libosiginadir, xolos. Bu ta’rif ma’nonibirinchi o‘ringa qo‘ygan Alisher Navoiy ta’rifiga mos keladi.

Fitrat o‘z maqolasida she’rni tug‘ilish asoslariiga ham diqqat qiladi. Uning fikriga ko‘ra, she’r uyda o‘tirib to‘qib chiqarilmaydi, bil’aks, u tashqi ta’sir, real hayotning shoir qalbidagi aksi-sadolaridan tug‘iladi. “Shoir tegrasidagi narsa va hodisalardan olding‘i sezgilarni hunarlicha (san’atkorona) so‘zlar bilan boshqalarga o‘tkarmoqchi bo‘ladir, - deydi davom etib Fitrat. – Kishining yuragi qancha “sezag‘on” esa, shuncha yaxshi shoir bo‘lur. Shoirliq uchun bir sezgi va u sezgini hunarlicha so‘zlar bilan boshqalarg‘a o‘tkazguchi bir kuch kerakdir”. Demak, Fitrat tashqi hayot ta’sirida tug‘ilgan his-tuyg‘ularni boshqalarning yuragiga o‘tkazmak uchun she’rga murojaat qiladiki, bunda u “hunarlicha ishlangan”, ya’ni san’atkorona topilgan va sayqallanib timsolga aylantirilgan so‘zlar bilan ish ko‘radi. Bu ko‘chish jarayoni Fitratning ayni shu yillari yozilgan “Shoir” she’rida shunday ifodalangandi: “shoir tabiatdan sirli, teran ma’nolarni chin yo‘llar bilan izlar – topar, o‘zi uchun saqlamas. Ularni yoz gulining yaprog‘idan to‘kulg‘on so‘zlar ilan bizga o‘rab topshirar”. Mana shu chin yo‘llar bilan topilgan timsollarni bizga o‘rab topshirish jarayonida maqolada tilga olingan vazn va qofiya asosiy maqsad emas, balki she’r qalbidagi ma’naviy qudratni yetkazuvchi

vositaga aylanadi. She’rdan maqsad “vaznu qofiya kabi she’riy birliklar emas, balki she’r qalbidagi haqiqatning she’rxon qalbiga ko‘chishidir”.

Bu yerda aytib o‘tish lozimki, adabiyotshunoslikda sarbast (erkin she’r, verlibr) va mansur she’r bir-biridan farqlanadi. Ma’lumki, nasr va nazm badiiy nutqning ikki ko‘rinishi, shaklidir. Nazmnинг bosh belgisi, rus adabiyotshunosi Yu.N.Tinyanov ko‘rsatib berganidek, misralarga ajralishidir. Sarbast – bu nazm namunasi. Sarbastda misralardagi hijolar soni noteng bo‘ladi, shuning uchun sarbast she’rni o‘qiganda nasrday idrok etiladi. Ammo bunday notejis ritm uni sochma deyishga asos bo‘lolmaydi. Mansur she’r esa nasriy nutq ko‘rinishidir. Mansur she’r misralarga bo‘linmaydi, u sochma shaklda yoziladi. Mana shunga ko‘ra aytish mumkinki, Fitrat “vaznsiz bir she’r” deganda aynan sochma nutq shaklidagi lirikani nazarda tutgan, aslo sarbast she’rni emas. Chunki sarbast – o‘z vazniga ega.

Fitrat birgina “She’r va shoирлиқ” nomli ixcham maqolasi orqali she’r nazariyasini, hamda uning amaliy jihatlarini yaxshi biluvchi nuktadon olim ekani ko‘rinadi. Ayni paytda Fitrat o‘zi nazariy jihatdan asoslab bergen holatlarni o‘z lirkijodida muvaffaqiyat bilan qo‘llay oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q.: Karimov N. Fitratning shaytonga isyoni // O‘zAS. – 1993 yil, 20 avgust.
2. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T. Sharq, 1994. – 104-bet.
3. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – 73-74-b.
4. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. – T., Fan, 2005. – 96-b.
5. Ayniy S. Ta’rxi inqilobi Buxoro. – Dushanbe, Adib, 1987. – Sah. 47.
6. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – 73-b
7. Xo‘jayev F. Buxorodagi inqilob va O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir // Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-t. – T., Fan, 1978. – 98-99-b.

FRAZEOLOGIK MINIMUMLARNING MAVZUVIY-SEMANTIK UYALARI

Z.I. Radjabova (PhD),

Qarshi davlat universiteti

S.S. Akramova, magistrant,

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilish, frazeologik minimumlarni tuzishda frazemalarning mavzuviy-semantik uyalari bo‘yicha joylashtirish masalalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, klassifikatsiya, leksik ma’no, frazeologik ma’no, nominativ ma’no, paradigm.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilish masalalari to‘g‘risida xilma-xil qarashlar mavjud. Bu esa frazeologik minimumlarning ro‘yxatlarini shakllantirishda ham turlicha yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Frazeologizmlar ko‘p hollarda so‘zlarga muqobil bo‘lishi bilan birga, frazeologik ma’no bilan leksik ma’no teng bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda prof.A.Hojiyevning fikriga to‘liq qo‘shilish lozim: “frazeologizmlar o‘z sinonimlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, birinchidan, ma’noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega”¹¹.

Demak, frazeologizmlarning semantik strukturasi frazeologik ma’no, ya’ni nominativ ma’no va qo‘sishimcha ottenkalardan iborat bo‘ladi. Frazeologizmlarning ma’nolari ko‘proq matnda va nutq vaziyatida kengroq reallashadi. Lekin ular alohida ham ma’lum nominativ ma’noda ifodalashi mumkin. Nominativ ma’no belgi,

¹¹ Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили . “Фразеология” .- Тошкент, “Ўқитувчи”, 1981, 180-бет

harakat, predmet kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot hisoblanadi. Masalan, tilimizdagи “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq”, “yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq”, “yuragi taka-puka”, “oyog‘i kuygan tovuqday”, “toqati toq bo‘lmoq” kabi ma’nodosh frazeologizmlar anglatgan “tashvishlanish”, “toqatsizlanish”, ma’nosи shу frazeologizmlarning nominativ ma’nosи hisoblanadi. Bular kishilarning toqatsiz harakati to‘g‘risida ma'lumot beradi. Yoki, tilimizdagи “ko‘ngli toza”, “dili toza”, “yuragi toza”, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, “musichadek beoor” kabi frazeologizmlar uchun “sofdil”, “halol” ma’nosи, shу frazeologizmlar uchun nominativ ma’no sanalsa, “ilonning oyog‘ini sanagan”, “pixini yorgan”, “tulkilik qilmoq”, “ichidan pishgan” kabi frazeologizmlar uchun “mug‘ombirlik” nominativ sanaladi. Bu frazeologizmlar xarakterning belgilari haqida ma'lumot beradi

O‘zbek tilida shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan va shaxs bilan bog‘liq bo‘lmagan frazeologizmlar shakliy va mazmuniy strukturasi o‘xshash bo‘lishi mumkin. Shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar uchun shaxslik belgisi integral belgi bo‘ladi va ularni modellashtirish, semantik-tematik guruhlarga ajratish uchun asos bo‘lishi mumkin. Frazeologizmlarning mazmuniy iyerarxik tuzilishida eng yuqori bosqichni kategorial ma’no egallaydi. Frazeologizmlarning kategorial ma’nosи yuqori darajada abstraksiyalanishga ega bo‘lib, frazeologizmlarning qaysi grammatik kategoriya mansublik belgisini o‘z ichiga oladi. Bir xil kategorial ma’noga ega bo‘lgan frazeologizmlar katta bir paradigma ostiga birlashadi va frazeologizmlarni ma'lum so‘z turkumlariga mansubligini bildiradi¹².

Yuqoridagilar asosida frazeologik minimumlarni tuzishda frazemalarning quyidagi mavzuviy-semantik uyalari bo‘yicha joylashtirish lozim degan xulosaga keldik:

1. Zavqlanish, shodlik va baxtiyorlikni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “og‘zi qulog‘iga yetdi”, “og‘zi qulog‘ida”, “og‘zining tanobi qochdi”, “labining tanobi qochdi”, “boshi osmonga etdi”, “boshi ko‘kka yetdi”, “terisiga sig‘may ketdi”, “ko‘ngil ko‘tarilmoq”, “ko‘ngli tog‘day ko‘tarilmoq”, “quvonchi

¹² Ш.Ганиева. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқики. Тошкент –Фан- 2013 70-бет

ichiga sig‘maydi”, “sevinchi ichiga sig‘maydi”, “quvonchi olamga sig‘maydi”, “do ‘ppisini osmonga otmoq” va boshqalar.

2. Ajablanish, taajjub, hayratni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “og‘zi ochilib qolmoq”, “yoqasini ushlarimoq”, “oyog‘i ostidan chiqib qolmoq”, “ko‘zi olma-kesak termoq”, “boshi (miyasi) g‘ovlab ketmoq”, “o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolmoq”, “hang-mang bo‘lib qolmoq”, “hafsalasi pir bo‘lmoq”, “osmondan tushgandek”, “o‘z ko‘zlariga ishonmaslik” “yetti uxbab tushiga kirmaslik”, “oyoq ostidan chiqib qolmoq”, “ensasi qotmoq” kabi.

3. O‘kinch, xafalik, qayg‘u, ozor, hasratni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “dili siyoh bo‘lmoq”, “yurakka qil sig‘maydi”, “yig‘lamoqdan beri bo‘lmoq”, “xo‘rligi kelmoq”, “dog‘da qolmoq”, “yurak bag‘ri qon bo‘lmoq”, “bag‘r(i) qon bo‘ldi”, “yuraklar qon bo‘ldi”, “qon bo‘lgan yuraklar”, “qon qilmoq”, “yuragini siqmoq”, “yuragi siqildi”, “o‘pkasi to‘lmoq”, “qo‘lini burniga tiqib qolmoq”, “ta‘bi tirriq”, “tabiati tirriq bo‘ldi”, “ta‘bini tirriq qilmoq”, “ta‘bi xira”, “kayfi buzuq”, “ta‘bi xira bo‘ldi”, “ta‘bini xira qilmoq”, “kayfi buzildi”, “kayfini buzmoq”, “ta‘bi xufton bo‘lmoq”, “ta‘bi nomozshom bo‘lmoq” kabi.

4. Hayajon, tashvish, xavotirlik kabi ma’no ifodalaydigan frazeologik birliklar uyasi – “o‘tirgani joy topolmaslik”, “o‘zini qo‘ygani joy topolmaslik”, “jizg‘anagi chiqmoq”, “ko‘ngli g‘ash”, “yuragi g‘ash”, “ko‘ngli xira”, “ko‘nglining bir chekkasi g‘ash”, “yuragini tirnamoq”, “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq”, “ichi g‘ash”, “yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq”, “yuragiga g‘ulg‘ula solmoq”, “yuragi taka-puka”, “yuragi tipirchilamoq”, “oyog‘i kuygan tovuqday”, “toqati toq bo‘lmoq”, “o‘zini qayerga qo‘yishini bilmaslik”, “o‘zini qo‘ygani joy topolmaslik”, “o‘zini qayoqqa urushini bilmaslik”, “sabr kosasi to‘ldi”, “joni xalqumiga keldi”, “pichoq suyakka yetti” va hokazo kabilar kiradi.

5. Qo‘rquv, vahima, dahshat ma’nolari ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “yurak” somatizmi orqali yasalgan “yuragi chiqib ketdi”, “yurak-puragi chiqib ketdi”, “yuragi qoq yorila yozdi”, “yuragi yorulguday bo‘lib ketdi”, “yuragi yorildi”, “yuragini changallab”, “yuragini hovuchlab (jonini hovuchlab)”, “yuragi

orqasiga tortib ketdi”, “yuragi orqasiga urub ketdi”, “yuragi shig‘ etib ketdi”, “yuragi shuv etib ketdi”, “esi chiqib ketdi”, “o‘takasi yorildi”, “kayfi uchdi”, “qotib qolmoq”, “es-xonasi yorildi”, “nafasi ichiga tushub ketdi”, “dami ichiga tushib ketdi”, “rangi quv o‘chmoq”, “o‘takasi o‘nga bo‘lindi”, “o‘takasi o‘ttiz ikkiga bo‘lindi” kabi.

6. G‘azab, nafrat, qahr, jahl ma’nolarni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “ko‘z” somatizmi asosida yuzaga kelgan “ko‘rarga ko‘zi yo‘q”(ko‘rgani ko‘zi yo‘q), “ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q”, “ko‘zlarining paxtasi chiqdi”, “ko‘zlari qinidan chiqa yozdi”, “ko‘zlari kosasidan chiqa yozdi”, “ko‘ziga qon quyilmoq” kabilar; “tepa sochi tikka bo‘ldi”, “g‘azabi qaynamoq”, “g‘azabga kelmoq”, “qoni qaynamoq”, “qovog‘idan qor yog‘moq” kabilarni o‘z ichiga oladi.

7. Qarg‘ish, so‘kish ma’nolarini ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “diydoring qursin”, “yer yutkur”, “ko‘zimdan yo‘qol”, “go‘ringda to‘ng‘iz qopgur”, “beti qursin”, “go‘riga g‘isht qalamoqi, “uying kuysin”, “ko‘zing ko‘r bo‘lsin”, “ko‘zingga qarasang o‘larmiding”, “isqotlariga buyursin”, “padaringga ming la‘nat”, “buzilib o‘lsin”, “iloyo kosasi oqarmasin” kabi frazeologizmlar.

CoreAFM YORDAMIDA Fe/p-Si GIBRID STRUKTURASINING SIRTI MORFOLOGIYASINI O'RGANISH

Boymirzayev O'lmas Otabek o'g'li¹,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti magistranti¹,

e-mail: ulmasboymirzayev32@gmail.com

Annotatsiya. Atom kuch mikroskopi (AKM) sirt morfoloyiyasi va teksturasini o'rganish uchun eng yaxshi va zamoniy qurilmadir.

Kalit so'zlar. Nanometr o'lchamdagি sirt topografiyasini bilish biologik jarayonlarning dinamikasi, tribologik xusiyatlari, mexanik ishlab chiqarish va asosiysi yupqa qatlamlar sirtini tadiq etish imkonini beradi.


[1] AKM yordamida olingan sirt tasvirlarini tahlil qilish orqali sirt tekisligining g'adur-budurligini va hosil qilingan yupqa qatlam sirt teksturasini yuqori aniqlikda tasavvur qilish mumkin.

Hozirgi kunda spintronika kabi ko'plab sohalar jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday rivojlanish albatta yangidan-yangi materialarga bo'lgan talabni tobora oshirmoqda. "Temir-kremniy" strukturasini axborotni saqlash va uzatish vazifasini bajaruvchi qurilmalarda ishlatilishi mumkin.[2] Ishning asosiy maqsadi yupqa qatlamning sirt teksturasi uning xossalariiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga qaratilgan bo'lib ushbu ilmiy izlanish uch bosqichda amalga oshirilgan,. Birinchi bosqich p-Si taglikning kimyoviy yo'l bilan tozalanishi, ikkinchi bosqich yuqori vakuumda toza Fe moddasining elektron nurli bug'latish yo'li bilan kremniy taglikka o'tqazilishi va uchinchi bosqich olingan Fe/p-Si tagligini AKM yordamida sirt morfoloyiyasini o'rganishdan iborat.

AKM yordamida aniqlanishi mumkin bo‘lgan quyidagi kattaliklar tekshirilayotgan sirt morfologiyasini aniqlashga yordam beradi:


1. R_m -balandlikning o‘rtacha qiymati. Bu kattalik sirtning musbat va manfiy balandliklarining o‘rtacha qiymatini aniqlaydi va sirt tuzilishi haqida dastlabki oddiy xulosalar qilish imkonini beradi.
2. R_a - tanlangan chiziq yoki sirt bo‘yicha hisoblangan o‘rtacha balandlikni aniqlaydi. Bu kattalik asosan ishlov berilgan sirt yuzasini g‘adur-budurligini baholashga imkon beradi
3. R_q -o‘rtacha kvadratik g‘adur-budurlik. Bu kattalik cho‘qqilarning sirt bo‘ylab taqsimlanishi aniqlashga imkon beradi va sirt morfologiyasini o‘rganishda o‘rtacha g‘adur-budurlik (R_a) ga nisbatan ancha sezgirroq hisoblanadi. Bu kattalik asosan “qiysiqlik” (skewness) va “uchlilik” (kurtosis) ni hisoblashda ishlatiladi. [3]
4. R_y -namuna bo‘ylab eng yuqori va eng pastki cho‘qqilar orasidagi masofani aniqlaydi va vodiyning eng katta cho‘qqisi deb ataladi va bu kattalik belgilangan sohadagi mavjud eng katta g‘adur-budurlikni baholash imkonini beradi.
5. R_v -sirtning eng katta chuqurligini va R_p -eng katta balandligini aniqlovchi kattaliklar hisoblanadi. Bu kattaliklardan sirtning ishlov berish darajasini hamda R_y -kattalikni aniqlashda foydalaniladi.

Birinchi bosqich, ya’ni p-Si taglik sirtini kimyoviy usulda tozalangandan so‘ng uning sirti AKM ning statik kuch maromida tekshirildi (1-rasm).



1-rasm. p-Si gibrif strukturasining “statik kuch” maromida olingan Z o‘qi bo‘yicha (a) va XY tekislikda (b) olingan 2D sirt tasvirlari ($60\mu\text{m} \times 60\mu\text{m}$).

Ikkinchı bosqich p-Si tagligiga toza temir moddasini yuqori vakuumda elektron nurli bug‘latish yo‘li bilan olingan. [4] So‘ngi uchinchi bosqichda olingan yupqa qatlamli gibrild strukturaning Fe o‘tqazilgan sirti statik kuch maromida qayta tekshirilgan (2-rasm).



2-rasm. Fe/p-Si gibrild strukturasidagi temir qatlamining sirti “statik kuch” maromida olingan Z o‘qi bo‘yicha (a) va XY tekislikda (b) olingan 2D sirt tasvirlari ($10\mu\text{m} \times 10\mu\text{m}$).

Tasvirlarni solishtiradigan bo‘lsak, kimyoviy ishlov berilgan kremniy taglikka temir o‘tqazilgandan so‘ng donadorlik oshgan, buni toza temirning bug‘lanish jarayonida sirtga o‘tirgan temir atomlarining bir jinsli joylashmagani bilan izohlash mumkin. Ammo sirt g‘adur-budurligini AKM yordamida olingan ma’lumotlarga tayanib tahlil qilish mumkin. 1-jadvalda kimyoviy ishlov berilgan va temir o‘tqazilgandan so‘ng sirtning AKM yordamida olingan ma’lumotlari keltirilgan bo‘lib, bu kattaliklar yuqorida ta’kidlaganimizdek sirt teksturasini baholash imkonini beradi.

1-jadval. p-Si taglik va Fe qatlamlarining g‘adur-budurlik parametrlari.

Sirt	R _m , fm	R _a nm	R _q nm	R _y nm	R _v nm	R _p nm
p-Si	-41.355	1.528	3.327	145.71	104.73	-40.979
Fe	-19.009	26.446	33.783	254.31	167.74	-86.575

Jadavaldan ko‘rish mumkinki, kremniy taglikda dastlab o‘rtacha g‘adur budurlik 1.5 nm atrofida bo‘lgan ammo temir qatlami o‘tqazilgandan so‘ng bu qiymat 26.4 nm ga teng bo‘lmoqda, bu bilan temir qatlami sirtining g‘adur-budurligi taglikka nisbatan ancha yuqori bo‘lganini aytish mumkin. O‘rtacha kvadratik g‘adur-budurlikning qiymatlarini solishtirib aytish mumkinki kremniy taglik sirtida g‘adur-budurlik Fe atomlarining kremniy taglikka bir jinsli o‘tirmaganidan ya’ni sirt donador teksturaga ega bo‘lgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fe/p-Si gibrild strukturasidagi temir qatlamining sirti baland g‘adur budurlikka va donador sirtga ega ekan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.A. Heredia, C.C. Bui, U. Suter, P. Young, T.E. Schaffer, NeuroImage **37**, 1218 (2007).
- 2.Istratov, A.A. Iron contamination in silicon technology / A.A. Istratov, H. Hieslmair, E.R. Weber // Appl. Phys. A. – 2000. – Vol. 70. – P. 489.
- 3.B.Rajesh Kumar, T.Subba Rao. AFM studies on surface morphology, topography and texture of nanostructured zinc aluminum oxide thin films. / Digest Journal of Nanomaterials and Biostructures Vol. 7, No. 4, October-December 2012, p. 1881-1889
- 4.Arzikulov E. U., Axrorov S. Q., Nurimov A. D., Quvondiqov Sh.J. /Fotoenergetikada nanostrukturali yarimo‘tkazgich materiallar. B 351-354 // II Xalqaro ilmiy anjumani. 19-20 noyabr 2021 yil. Toshkent-2021

УЎТ:633.11/37;631.52

БАҲОРГИ БУҒДОЙ НАВ НАМУНАЛАРИНИНГ БИОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

Азизов Бекзод Ғайрат ўғли

Таянч доктарант, Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти

Жўраев Диёр Турдиқулович

Қишлоқ хўжалиги fan доктори (DSc) катта илмий ходими

Аннотация: Мазкур мақолада сугориладиган майдонлар учун баҳорги юмиоқ буғдойнинг 25 та нав ва тизмаларининг биометрик кўрсаткичлари андоза навлар билан таққосланган ҳолда ўрганилди. Илмий тадқиқотимда ўсимлик бўйи, бошоқ узунлиги хамда 1000 дона дон вазни юқори бўлган нав ва тизмалар келтирилган.

Калит сўзлар: Баҳорги юмиоқ буғдой, ўсимлик бўйи, 1000 дона дон вазни, андоза, нав ва тизмалар.

Abstract: In this article, the biometric indicators of 25 varieties and lines of spring soft wheat for irrigated fields were studied in comparison with standard varieties. In my scientific research there are varieties and varieties with high plant height, ear length and 1000 grain weight.

Keywords: Spring soft wheat, plant height, 1000 grain weight, template, variety and ridges.

Аннотация: В данной статье изучены биометрические показатели 25 сортов и линий яровой мягкой пшеницы для орошаемых полей в сравнении со стандартными сортами. В моих научных исследованиях есть сорта и сорта с высокой высотой растения, длиной колоса и массой 1000 зерен.

Ключевые слова: Яровая мягкая пшеница, высота растения, масса 1000 зерен, шаблон, сорт и гребни.

Олимларнинг такидлашича буғдойнинг қимматли хўжалик белгиларининг корреляцион боғлиқлигини ўрганиш мақсадида уларни икки гурухга бўлиб ўрганилган ва биринчи гурухга: бошоқ узунлиги, бошоқдаги бошоқчалар сони, бошоқдаги дон сони ва вазни, бошоқ зичлиги ҳамда ҳосил элементлари, иккинчи гурухга асосий поя узунлиги, 1000 дона дон вазни белгилари ўрганилган деб такидлашган.

Баҳорги юмшоқ буғдойнинг бази навларида бошоқ узунлигининг ўртача қиймати (2011-йилда) 6.4см бўлган бўлса 2013-йилга келиб бу кўрсаткич 8.2 см га етган деб такидлайдилар. Людмила Владиславовна Волкова.

Тадқиқот ишимизда Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институтининг Қарши тумани ҳудудида сугориладиган майдонда тажриба олиб борилди. Тажриба обекъти сифатида жаҳон генофондидан келтирилган ва маҳаллий шароитда яратилган баҳорги юмшоқ буғдойнинг 25 та нав ва тизмалари олинди. Андоза навлар сифатида Республикализнинг сугориладиган майдонларида жорий қилинган Ж.Гавхар, Наврӯз, Парвоз навлари олинди. Тажрибалар 3-қайтариқда, 10m^2 қилиб жойлаштирилди.

Ўсув даври давомида сугориладиган майдонларда ғалла етиштириш учун тавсия этилган оптималь агротехник тадбирлар қўлланилди.


Олиб борилган тадқикот натижаларига кўра июн ойида биометрик ўлчов ишлари олиб борилди, (3.9.1-жадвалда).

3.9.1-жадвал

**Баҳорги юмшоқ буғдой нав ва тизмаларнинг биометрик кўрсаткичлари
(Қарши 2022 й)**

DORIVOR O‘SIMLIKARINI TASHISH VA SAQLASHGA QO‘YILGAN TALABLAR

Kodirova Shaxnoza Salomovna

116-22 MSMSM guruh talabasi

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Standart xoliga keltirilgan dorivor mahsulotlar turiga qarab xar xil qadoqlanadi. Dorivor mahsulotlarni idishlarga joylashtirish (qadoqlash) ularni tashqi ta’sirlardan va to‘kilish, sochilishdan, ishlatiladigan muddati ichida uning sifatini va tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmasdan saqlanishini xamda transport vositalarida jo‘natish va tashishni ta’minlashi lozim.

Kalit so‘zlar: Dorivor mahsulotlar, sochilish, to‘kilish, savdo-sotiq, transport, efir moyi, qadoqlash.

O‘tmishdan insoniyat o‘simlik dunyosidan oziq-ovqat va shifobaxsh vosita sifatida foydalanib kelingan. Shu davrda dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qabiladan-qabilaga va avloddan-avlodga faqat og‘zaki ravishda o‘tib kelgan va tarqalgan. Keyinchalik, davlatlar o‘rtasida savdo-sotiq va boshqa munosabatlар o‘rnatilgandan so‘ng, ana shu davlatlarda boshqa davlatlardan keltirilgan dorivor o‘simliklar hisobiga dorivor o‘simliklar mahsulotining turlari ko‘paya bordi. Yozuv paydo bo‘lganidan keyin dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yozma ravishda tarqala boshladi. Demak, dorivor o‘simliklardan foydalanish bo‘yicha boshlang‘ich tarix ma’lumotlarini yozuv va ilm-fan taraqqiy topgan davrdan boshlangan deb hisoblash mumkin.

Standart xoliga keltirilgan dorivor mahsulotlar turiga qarab xar xil qadoqlanadi. Dorivor mahsulotlarni idishlarga joylashtirish (qadoqlash) ularni tashqi ta’sirlardan va to‘kilish, sochilishdan, ishlatiladigan muddati ichida uning sifatini va

tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmasdan saqlanishini xamda transport vositalarida jo‘natish va tashishni ta’minlashi lozim.

Dorivor mahsulotlarni tashishda ularga qo‘yilgan me’yoriy talablarga binoan quruq, toza, xech qanday hidi bo‘lmagan, usti yopiq transport vositalarida jo‘natiladi. Zaxarli, kuchli ta’sirga ega xamda o‘zida efir moyi saqlovchi dorivor mahsulotlarni boshqa mahsulotlardan alohida boshqa transport vositalarida (avtomashina, temir yo‘l vagoni va boshqa transport vositalari) yuborilishi lozim.

Mahsulotlarni joylashtirishga qoplar, xaltachalar (paketlar), taxtadan va karton qog‘ozdan yasalgan yashiklar va qutichalar xamda toylash uchun yasalgan yashiklar va boshkalar ishlatiladi. Ishlatiladigan idishlar quruk, toza, xech qanday xidi bo‘lmasligi hamda har bir partiya uchun bir xil bo‘lishi kerak.

Mahsulotlar joylashtiriladigan idishlar, idishdagi mahsulotlarning og‘irligi dorivor mahsulotlarning turiga qarab aniqlanadi va ular tegishli me’yoriy-texnik hujjatlarda qo‘yilgan me’yoriy talablarda ko‘rsatiladi. Tayyorlangan, quritilgan va idishlarga joylashtirilgan mahsulotlar o‘z vaqtida saqlanadigan va ishlatiladigan joylarga jo‘natilishi lozim. Agarda maxsulotlarni transport vositasi orqali jo‘natishda tegishli qoidalarga rioya qilinmasa, u yo‘lda namlanishi, maydalanishi va boshqa sabablarga ko‘ra o‘z sifatini yo‘qotishi mumkin.

Dorivor o‘simpliklardan tayyorlangan mahsulotlar ishlatilishiga qadar ma’lum vaqt ichida markazlashtirilgan ombor, zavod, fabrika va laboratoriya omborlarida ko‘p yoki oz miqdorda saqlanadi. Shu davrda dorivor mahsulot o‘z sifati va qimmatini yo‘qotmasligi uchun, saqlash qoidalarga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

Dorivor mahsulotlar saqlanadigan bino va xonalar toza, quruq va shamol o‘tib turadigan bo‘lishi lozim. Mahsulotlarga quyosh tushmasligi va xonaning poli taxtadan, devorlari oqlangan bo‘lishi shart. Dorivor mahsulotlar maxsus stelaj yoki so‘rilar ustiga qo‘yiladi. So‘rilarning balandligi 4 m gacha, eni 1,5 m bo‘lishi, devorgacha masofa 25 sm, so‘rilarning o‘zaro oralig‘i 50 sm va poldan balandligi 15-20 sm dan kam bo‘lmasligi kerak.

Dorivor mahsulotlar saqlanadigan xonalar xar kuni tozalanib turilishi, xona xarorati 10-15° bo‘lishi lozim. Quritilgan mevalar, masalan, malina, chernika va boshqalarni havo o‘tib turadigan joylarda saqlash yoki mahsulot miqdori kam bo‘lsa osib qo‘yish kerak. Bu mevalarga hashoratlar va kemiruvchilar o‘ch bo‘ladi. Shu sababli hasharot va kemiruvchilardan himoya choralar ko‘rilmasa sifati buzulishi, yaroqsiz holga kelishi mumkin.

Har bir dorivor mahsulot ustiga yorliq osib qo‘yiladi. Yorliqqa mahsulot nomi, qachon, qayerda, kim tayyorlagani, saqlash usuli, omborga qachon keltirilgani yozilgan bo‘ladi.

Olib borilgan kuzatuvlar natijasiga ko‘ra quritilgan dorivor xom ashyo mahsulotlarni qadoqlash uchun quyidagi idishlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matodan tikilgan qoplar zig‘ir-jut-kanop tolalaridan to‘qilgan qoplar, bu qoplar bir yoki ikki qavat holida ishlatilishi mumkin. Qoplarning og‘zi qo‘l yoki mashina kanop ip yoki zig‘ir matosidan qilingan iplar yordamida tikilgan bo‘lishi kerak. Qopga solingan mahsulot og‘irligi 40 kg dan oshmasligi kerak. Qog‘oz qoplar ishlatilishiga qarab bir yoki ikki qavatli qog‘ozli xaltalar bo‘ladi. Mahsulot bilan to‘ldirilgan qog‘oz qoplar, xaltalar og‘zi yuqorida ko‘rsatilgan iplar bilan qo‘l yoki mashina yordamida tikiladi. Bir yoki ikki qavat xaltalar tayyorlash uchun maxsus qog‘ozlar ishlatiladi. Qog‘oz qopga 15 kg, qog‘oz xaltaga 5 kg dan ortiq mahsulot solinmasligi kerak.

-quritilgan mevalar, shoxkuya hamda ayrim qimmatbaho va og‘ir mahsulotlar ikki qavat qilib tikilgan qoplarda saqlanadi.

Qadoqlanadigan idishlar turiga dorivor mahsulot qadoqlanish normasi xuddi shuningdek xaltachalar va qutichalar og‘zi qanday yelim bilan yelimlanishi, dorixona va omborlarga jo‘natish uchun yashiklarga qancha xaltacha va qutichalar joylashtirilishi kerakligi tegishli me’yoriy-texnik hujjatlarda ko‘rsatiladi:

- tayyorlagan korxona va uni tovar belgisi; mahsulotning lotin, rus va o‘zbek tilidagi nomi; namlikni eng ko‘p ruxsat etiladigan holatidagi mahsulot og‘irligi, ishlatish

usuli, saqlash sharoiti, hisobga olingan raqami, seriya raqami, saqlash muddati va tan narxi (bahosi) yozilgan bo‘lishi kerak.

Dorivor mahsulotlarni saqlashda yoki tashish davrida biror nuqson sezilsa, dorivor mahsulotni saqlash muddatini kutib o‘tirmasdan tezda tekshirish tahlilga yuborib sifati aniqlanadi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov O‘., Ergashev A., Abzalov A., Yulchiyeva M., Musrafakulov D. “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi”. Darslik-2020 yil..
2. Kamolova M.X., Boltayev B.O., Kamalova M.X. (2022). Sifat menedjmenti tizimini sertifikatlashtirish talablari. *Science and Education*, 3(12), 315-3206.
3. Kamolova M.X., (2022). Main Requirements of the O‘zDSt ISO\IEC Standard 17021: 2009. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 4-9. p

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MAQOLLARNING ROLI**(ROLE OF PROVERBS IN TEACHING ENGLISH)****Abduraximova Farida Komiljon qizi**

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Ingliz tili I fakulteti Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: *O‘qituvchilar ko‘pincha o‘z talabalarining ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yuqori darajada ushlab turish qiyin. Ular o‘quvchilarning diqqatini mavzuga jalgan qilib uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qilishlari kerak, shunda o‘quvchilar o‘rganish jarayonida zavqlanish hissini uyg‘otadi. Ushbu maqolada o‘qituvchilar o‘quvchilarni ingliz tilini o‘rganishga qiziqishlarini oshirish uchun maqollardan qanday foydalanishlari mumkinligini bayon etilgan. Asosan, maqollar turli madaniyatlar va tillar bo‘ylab inson tajribasini aks ettiradi, ularda xalq hikmatlari vaqt davomida sinovdan o‘tgan. Til o‘rgatish bilan bog‘liq holda, ular boshqalar qatori nutq, yozish, grammatika, lug‘at, madaniyat va qadriyatlarni o‘rgatish uchun ishlatalishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: maqollar, tashkiliy qism, ingliz tili o‘qitish.

Fan-texnika taraqqiyoti tufayli dunyo qisqarmoqda. Butun dunyo bo‘ylab odamlar o‘rtasidagi muloqot shu qadar jadallahib bormoqdaki, ular o‘z hissuyg‘ularini yoki o‘z bizneslarini yuritganda baham ko‘rishlari mumkin bo‘lgan xalqaro tilga muhtoj. Ingliz tili butun dunyo bo‘ylab odamlar tomonidan o‘rganiladigan muhim xalqaro tilga aylandi. Ingliz tilini o‘rgatish va o‘rganish muhim tashabbusga aylanadi. Tilshunoslar va til o‘qituvchilari ingliz tilini o‘rgatishning eng yaxshi usulini izlashda davom etmoqdalar.

Ko‘pgina talabalar tilni o‘rganishdan oldin juda ko‘p sabablarga ko‘ra tilni o‘rganishdan voz kechishadi. Bunday hollarni kamaytirish uchun ingliz tili o‘qituvchisi o‘z darsini qiziqarli o‘tishi va o‘quvchilarini o‘qishga qiziqtira olishi va talabalarini maqsadli tilni o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishishi uchun bor kuchini sarflashi kerak. Buning uchun o‘qituvchi o‘z darsiga turli xil yangi pedagogic texnikalarni olib kirishi kerak. Dars boshidanoq qiziqarli materiallarni taqdim etishi kerak, shundagina o‘quvchilarini ko‘proq izlanishga undaydi, ularning konsentratsiyasi saqlanib qolishi va bir vaqtning o‘zida darsning qiziqarli bo‘lishini ta’minlashi mumkin.

Darsni yaxshi boshlash uchun o‘qituvchiga o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradigan yoki o‘quv jarayoni davomida zavqlanishlari uchun ularni qiziqtita oladigan narsa kerak. Maqollardan foydalanib, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga ingliz tilini tezroq o‘rganishga yordam beradi va o‘quv jarayoni davom etayotganda yoqimli tajribaga ega bo‘ladi. Yaxshi boshlanish o‘quv jarayonida mazmunli va foydali vaqtning kafolatlashi mumkin. Tajribali o‘qituvchi darsining qiziqarli yoki qiziqarsiz bo‘lishini boshidanoq bilib oladi. Agar dars quvnoq vaziyat bilan boshlansa, keyingi o‘qitish bosqichi osonroq bo‘ladi va o‘quvchilar yaxshi o‘rganadilar.

Ingliz maqollari tashkiliy qism sifatida ishlatilishi mumkin. Maqollar asrlar davomida axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun o‘quv quroli sifatida ishlatilgan. Ular aql, donolik, tajriba, o‘rganish va hokimiyat bilan shug‘ullanishi mumkin. Ular haqiqatan ham inson tabiatini va butun dunyo haqidagi donolik va bilimlarni etkazish uchun samarali vositalardir (Mieder, 2004: 146). Maqollarda umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan kundalik hayotga taalluqli bir necha so‘zda haqiqat mavjud va ular oson esda qoladi. Maqollarning yaxshi qadriyatlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi til ko‘nikmalarini o‘rgatishdan oldin ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatish uchun maqollardan foydalanishi mumkin. Bu lug‘at, grammatika, jumlalar, axloqiy qadriyatlarni o‘rganishni mustahkamlashning yaxshi usuli bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘qituvchi materialni batafsil o‘rgatishdan oldin grammatika darsini boshlash uchun ma’lum maqollardan foydalanishi mumkin. Misol uchun, gerundni o‘rgatmoqchi bo‘lgan o‘qituvchi quyidagi maqollardan tashkiliy qism sifatida foydalanishi mumkin:

Before criticizing a man, walk a mile in his shoes;

Seeing is believing.

Buyruq gaplarni o‘rgatishda o‘qituvchi quyidagi maqollardan tashkiliy qism sifatida foydalanishi mumkin. Bu ijobjiy va salbiy buyruq gaplar haqida bo‘lishi mumkin. Shu maqsadda maqollardan bir nechta misollar keltiramiz:

Fool me once, shame on you. Fool me twice, shame on me.

Don’t burn your bridges before they’re crossed.

Talaffuzni o‘rgatish zerikarli bo‘lishi mumkin, ammo maqollar bu masalada qiziqarli bo‘lishi mumkin. Talaffuzni o‘rgatishda o‘qituvchi o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lgan ba’zi unli yoki undosh tovushlardan iborat maqollardan foydalanishi mumkin:

A friend in need is a friend indeed;

Birds of the same feather flock together.

Tilning go‘zalligi o‘quvchilarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish uchun qiziqarli narsa bo‘lishi mumkin. Qisqa maqollarni chiroyli qofiyalar bilan yodlash talabalarni ko‘proq o‘rganishga va nutq a’zolarini maqsadli tilni mashq qilishga o‘rgatadi. Quyidagi maqollarning ba’zi misollarini talabalar nisbatan oson yod olishlari mumkin:

No pain, no gain.

Haste makes waste.

Maqollar boy ma’noga ega bo‘lgani uchun o‘quvchilar o‘rtasida fe’l-atvorni shakllantirish va bir vaqtning o‘zida ingliz tilini o‘rgatish maqsadida ulardan axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda foydalanish mumkin. Maqollarda donishmandlik, intizom, insof, do‘slik, tayyorlik, taqdir, baxt, sa’y-harakatlar kabi qadriyatlar mavjud.

Masalan, o‘qishni o‘rgatishda o‘qituvchi o‘qish matnida mavjud bo‘lgan ba’zi qadriyatlarni kiritishi mumkin:

Time is money;

Don’t judge a book by its cover.

Darsni muvaffaqiyatli o‘tkazishda tashkiliy qism muhim rol o‘ynaydi. Qiziqish - bu odamlarni yangi tajribani o‘rganishga undaydigan bиринчи motivlar. O‘qituvchi ingliz tilini o‘rgatishda ushbu hodisadan foydalanishi kerak. “A good beginning is a half battle”, deganlaridek, dars zavqli muhitda boshlanganidan keyin keyingi bosqich ham shunga yarasha qiziqarli bo‘ladi. Tashkiliy qism uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan usullardan biri maqollardan foydalanishdir. O‘qituvchi darsda muhokama qilinayotgan mavzuga mos va o‘quvchilarining bilim darajasiga mos keladigan maqollarni tanlashi kerak. Tilni o‘rgatishni u tildagi madaniyatni o‘rgatishdan ajratib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, til inson madaniyatining bir qismidir. Maqollar xalq qadriyatlарини о‘з ichiga olganligi sababli qiziqarli mashg‘ulot sifatida xizmat qilishi mumkin. Maqollar o‘quvchilarining xarakterini shakllantirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi tarbiyaviy qadriyatlarga ega. Ingliz maqollarining xususiyatlariga asoslanib, o‘qituvchi ingliz tilidan asosiy faoliyat sifatida foydalanishi mumkin. O‘qituvchi ulardan ingliz tili ko‘nikmalarini yoki ingliz tilining lingvistik tarkibiy qismlarini o‘rgatishda foydalanishsa yaxshiroq natijalarga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (I,II va III jildlar). – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
2. Bakirov P.U. Milliy g‘oya targ‘ibotida o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish. – T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 47 b.
3. Dal V.I. Пословицы русского народа. – М.: “Худож.лит.”, 1984. – 383 b
4. O‘zbek xalq maqollari . – T.: “Sharq”, 2012. – 512 b. 5.

www.englishproverbs.com

6. Abduraximova , F. (2022). MENTALITY AND NATIONALITY IN PROVERBS OF ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 691–694. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/936>
7. Abduraximova F. (2023) LINGVOKOGNITOLOGIYA: TIL VA TAFAKKUR. Results of National Scientific Research International Journal 2 (4), 47-50. <http://academicsresearch.ru/index.php/rnsrij/article/view/1599>
8. Abduraximova F. (2022) DEVELOPMENT STAGES OF THE CONCEPT TO CONSTRUCTIVISM. <https://johuns.net/index.php/publishing/394.pdf>

SAID AHMAD NASRINING NAFISLIGI

Murotova Yulduz Faxriddin qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 3- kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nasrnavis va dramaturg, o‘zbek adabiyotida kichik nasr - hikoya ustasi sifatida tanilgan mashhur yozuvchi Said Ahmad qalamiga mansub hikoyalar xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hikoya, “Cho‘l burguti”, “Cho‘l shamollari”, “Tunlar va cho‘llar”, “Buqalamun bilan uchrashuv”, “Qoplon”.*

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unda tajriba qilish, sinab ko‘rish, ochilmagan yo‘llardan yurish, xato qilish imkoniyati mavjud edi. Bu hol birovga o‘xshamaydigan, o‘zgalarni takrorlamaslikka intiladigan o‘ziga xos istedodlarning ko‘payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil o‘quvchilar paydo bo‘ladi. Badiiy didi yuksak, so‘zni nozik his etadigan, sezimlardagi yengil tebranishlarni ham ilg‘ay oladigan kitobxonlar ko‘payib ular asarlarni ham tanlab o‘qishadi. Said Ahmad ana shunday nozik didli kitobxonlar tomonidan hamisha sevib o‘qiladigan asarlar muallifidir. U nasrnavis va dramaturg, o‘zbek adabiyotida kichik nasr - hikoya ustasi sifatida tanilgan.

Uning ko‘plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Mislsiz xizmatlari uchun Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va “Do‘stlik” ordenlari hamda “O‘zbekiston qahramoni”, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” sharaflı unvonlariga sazovor bo‘lgan.

30-yil oxirlaridan Said Ahmad badiiy nasr janrida samarali ijod qildi, uning birinchi hikoyalari to‘plami “Tortiq” 1940 yil nashr etilgan. “Jimjitlik” romanida turg‘unlik davri illatlari fosh etiladi. 40-yillar uning “Er yurak” (1942), “Farg‘ona hikoyalari” (1948), “Muhabbat” (1949) kabi to‘plamlari nashr etilgan. 50-yillar boshi, 60-yillar oxirida Said Ahmadning ijodi yanada yuqoriroq badiiy darajaga ko‘tariladi. U o‘nlab lirik va hajviy hikoyalari yaratib, o‘zbek adabiyotining hikoya janri rivojida muayyan o‘ringa ega bo‘lgan. Bu yillar Said Ahmad ijodida yangi mavzu alohida e’tiborga loyiq - bu Markaziy Farg‘onaning bo‘z yerlarini o‘zlashtiruvchilar hayotining aks etish mavzusidir. Bu hikoyalari “Cho‘l burguti”, “Cho‘l shamollari” va “Tunlar va cho‘llar” kabi to‘plamlardan joy olgan bo‘lib, bizning ko‘pmillatli adabiyotimizdagi “qishloq nasri”ning o‘ziga xos timsollari hisoblanadi. Said Ahmad o‘zini nasmning yirik janrlarida ham sinab ko‘rgan. U “Hukm” qissasini yozgan. Shuningdek, o‘zbek nasrida nisbatan sust rivojlangan detektiv janri asosidagi “Sud” qissasini yaratib, unda axloqiy-tarbiyaviy muammolarni ilgari ko‘taradi. Va, nihoyat, “Ufq” trilogiyasini yozadi. Ushbu trilogiya yozuvchi ijodida alohida o‘rin tutudi — zamonaviy o‘zbek nasridagi yirik hodisa. Said Ahmad ushbu romanlar ustida 15 yil mehnat qilgan. Ular yozuvchining butun hayot yo‘lini qamrab olgan - urushdan oldingi, urush davridagi va urushdan keyingi yillarni. Roman asosida chin tarixiy voqealar yotadi - Katta Farg‘ona kanalining qurilishi va Markaziy Farg‘ona kanalining egallanishi. Ushbu tarixiy hodisalar asosida yozuvchi xalqning ma’naviy dunyosini ohib, qadimdan ularga hos mehnatkashlikni, to‘g‘riso‘zlik, jasorat - xalqaro ittifoqdoshlik va jamoaviylikni ko‘rsatib beradi - bular esa inson qalbiga xos oljanob va himmat manbalari sanaladi. “Ufq” o‘zbek va rus tillarida ko‘pkarra nashr etilgan, qardosh xalqlarga bir necha bor tarjima qilingan.

Kitobxonlar orasida shubhasiz, shuhrat qozongan mazkur trilogiya uchun muallif 1978-yil Hamza nomidagi O‘zbek SSRning Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Said Ahmad dramaturgiya va kinodramaturgiya sohalarida ham samarali ijod qiladi. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘aloni” komediyasining shuhrati juda

baland bo‘lgan. Ushbu komediya spektakli hanuz O‘zbekiston va qardosh xalqlarning teatr sahnalarida namoyish etiladi.

Bilamizki, Said Ahmadning ko‘plab hikoyalari satira va yumorga boy. Said Ahmadning hikoyalaridagi o‘ziga xoslik ham aynan shunda. Ular orasida “Qoplom” hikoyasi tom ma’noda jamiyatdagi ayrim illatli vaziyatlarni ochib berishga, hayotimizning og‘riqli nuqtalari yoinki insonlar duch keladigan va ularning dilini yaralaydigan voqealarni izohlashga qaratilgan. Munofiqlik, riyokorlik, mansabparastlik, xiyonat bu kabi illatlarni o‘ziga do‘sit qilib olgan kishilarni ming taassuf bo‘lsinki bir umrimiz davomida judayam ko‘p uchratamiz va bu narsa davom etib kelyapti. Chunki, jamiyatda, boringki butun olamda hozir insonlarni faqat o‘zini o‘ylashi va o‘z manfaatlari uchun har qanday jirkanch ishlarga qodir ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan, mana shu hikoyada butun boshli katta bir muammo yoxud illat bittagina, oddiygina voqeа bilan ochib beriladi. Biz bunday voqealarga ko‘p guvoh bo‘lamiz, shunchaki unchalik ahimiyat bermaymiz. Bu hikoya esa o‘sha biz e’tiborsizlarcha qoldirgan ba’zi bir voqealarni eslashga, ularni qayta yodga olishga undaydi. Axir adabiyotning vazifasi ham shundan iborat.

Said Ahmadning “Buqalamun bilan uchrashuv” hikoyasi o‘zbek adabiyoti uchun muhim hodisa hisoblanadi. Buqalamun nomli asarlar nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyotida ham uchrashiga guvohi bo‘lganmiz. Jumladan, Anton Pavlovich Chexov qalamiga “Xameleon” (Buqalamun) hikoyasi adib ijodining eng yaxshi namunalaridan biri bo‘lgani holda 1884-yil Chexov shifokor vazifasida ishlay boshlaganda chop etilgan. Asarning bosh qahramoni politsiya nazoratchisi Ochumelov bo‘lib, u orqali inson ichidagi bir necha qiyofalarni ochib berishga harakat qilingan.

Said Ahmadning “Buqalamun bilan uchrashuv” hikoyasida jamiyat uchun havf tug‘dirayotgan turli maqomga o‘ynaydigan kimsalarning asl bashrasi ochib berishga urinilgan. Chexovning Xameleon kim o‘zi? Yozuvchi bu savolga javob berish uchun insonni emas, balki oddiy itni vosita qiladi. Bir itning egasini topish masalasi insonlarning yuzlaridagi “niqoblar”ini yechib tashlaydi. Oddiy hodisadek

tuyuluvchi bu kulgili va achinarli holat orqali insonlarning yaxshi va “quloqlari tinch” yashashlari uchun hech narsadan qaytmasliklari mahorat bilan ohib beriladi. Said Ahmadning “Buqalamun bilan uchrashuv” asarida jamiyatda uchraydigan zamona zayliga o‘ynaydigan o‘z fikriga ega bo‘lmagan inson tasviri chiziladi. Inson jamiyat bilan bevosita emas, balki bilvosita munosabatga kirisha oladigan, o‘tkir zexn, ong sohibi sanaladi. Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Asarda yozuvchi qahramonlar portretini chizishga alohida ahamiyat bergen. Portret, aslida, personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri sanaladi. Adib ham o‘z hikoyasi qahramoni bilan ochiqchasiga konfliktga boradi. U hikoyada qahramonga yolg‘ondakamiga bo‘lsada ism qo‘ymaydi. Bu orqali adib qahramonni odam sifatida ko‘rmaydi, uni jamiyatdagi o‘rni yo‘qligiga ishora qiladi. Beixtiyor o‘quvchi ham o‘ylanib qoladi. Bu kabi insonlarni yetishib chiqishiga nima sabab? Albatta, bunda zamon emas shaxs aybdor deyish mumkin. Chunki u bilan bir safda yurgan insonlar emas aynan u o‘zgarayabdi. Nimaga yozuvchi unga nisbatan buqalamun demoqda. Chunki u har maqomga o‘ynaydigan, bir so‘z bilan aytganda, ikkiyuzlamachi inson. Shu sababli ham yozuvchi ushbu qahramonga nisbat bermay buqalamunn deyishdan nariga o‘tmaydi. Buqalamun-vaziyatga qarab o‘z rang tusini o‘zgartiruvchi hayvon hisoblanadi. Adib aytayotgan qahramon ham davrga qarab maddohlik qiluvchi buqalamun inson sanaladi.

Adabiyot urmaydi, so‘kmaydi shunchaki sizga biror voqeani ko‘rsatib, yoritib beradi. Siz esa bu asarni o‘qish mobaynida ham ma’naviy ozuqa, ham o‘zizga yetarlicha xulosa ham chiqara olasiz. Zero, badiiy adabiyot dunyo qarashni oshiradi degan xulosa bejizga kelib chiqmagan. Bu maqolada o‘sha asarning tahlili va uning inson hayotiga tatbiqi yoxud u kitobxonga nima bera olishi haqida gap ketadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar :

1. www.asaxiy.uz
2. <https://library.navoiy-uni.uz>

FOTO-ISSIQLIK-TERMOELEKTRIK GENERATORLAR

M. Nabiyeva

Buxoro davlat universiteti magistri


Annotatsiya: Mazkur ishda foto-issiqlik-termoelektrik generatorni tashhkil etuvchi qurilmalar, quyosh batareyasi, quyosh paneli - fotoelektrik o'zgartirgichlarning birlashtirilgan to'plami - quyosh energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektr tokiga aylantiradigan yarim o'tkazgichli qurilmalar batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: foto-issiqlik-termoelektrik generator, quyosh paneli, fotoelement, termoelektrik generator.


Foto-issiqlik-termoelektrik generator asosan uchta qismdan fotoelement, termoelektrik generator va quyosh havo isitgich kollektorining birlashtirilganidan iborat[1]. Foto-issiqlik-termoelektrik generator bir vaqtning o'zida quyosh energiyasini ham elektr energiyasi ham issiqlik energiyasiga aylantiradi. Ma'lumki fotoelement va termoelektrik generator elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Quyosh havo isitgich kollektori esa quyosh energiyasini issiqlik energiyasiga aylantiradi.

Quyida foto-issiqlik-termoelektrik generatorni tashhkil etuvchi qurilmalarni batafsil ko'rib chiqamiz.


Quyosh batareyasi, quyosh paneli - fotoelektrik o'zgartirgich (fotoelement) larning birlashtirilgan to'plami - quyosh energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektr tokiga aylantiradigan yarim o'tkazgichli qurilma (1-rasm)[2]. Fotoelementning ish tamoyili 2-rasmda keltirilgan [3]. Fotoelement va quyosh panelining umumiy ko'rinishi 3 va 4-rasmda ko'rsatilgan [4,5].



1-rasm. Fotoelement, quyosh batareyasi va quyosh paneli.



2-rasm. Fotoelementning ish tamoyili



3-rasm. Fotoelement.



4-rasm. Qoyosh paneli

Termoelektrik generator (Pelte elementi) ning umumiyo ko'rinishi 5-rasmda ko'rsatilgan [6]. Ish tamoyili esa 6-rasmda keltirilgan [7].




a)

5-rasm. Pelte modullariining umumiyo ko'rinishi



b)




6-rasm. Termoelektr generatori (Pelte elementlari asosida) har xil Zeebek koeffitsientiga ega bo'lgan materiallardan iborat (p- va n-yarim o'tkazgichlar). Yuk (kuchlanish) olib tashlanganda, oqim to'xtaydi va sxema termojuft vazifasini bajaradi.

Quyosh kollektorining umumiyo ko'rinishi 7-rasmida ko'rsatilgan [8], ish tamoyili esa 8-rasmida ko'rsatilgan[9].



7-rasm. Quyosh havo isitgich kollektorining umumiyo ko'rinishi



8-rasm. Quyosh havo isitgich kollektorining ish tamoyili sxemasi

Foto-issiqlik-termoelektrik generatorning matematik modeli ni ishlab chiqish va hisoblashlar o'tkazish uchun [13] da keltirilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Ekologik tahlil. Quyosh qurilmalaridan foydalanganda atrof-muhitga chiqariladigan zaharli gazlarning miqdori kamayadi. Zaharli gazlardan biri bu CO₂ ya'ni karbonat angidrit gazi hisoblanadi. Zaharli gazlarning atrof-muhitga chiqishining kamayishi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi [14]

$$M_{CO_2} = \frac{Q_f}{\chi \cdot \eta} K_{CO_2} \frac{44}{12} \quad (22)$$

bunda ΔM_{CO_2} - quyosh qurilmalaridan foydalanganda atrof-muhitga chiqariladigan zaharli gazlar miqdorining kamayish massasi, kg; Q_f - quyosh qurilmasidan foydalanish natijasida olingan foydali energiya, J; χ - an'anaviy yoqilg'inining solishtirma yonish issiqligi, J/kg; η - issiqlik manbaining foydali ish koeffitsiyenti; K_{CO_2} - turli energiya manbalari uchun uglerod emissiyasi koeffitsiyenti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.S. Nazri et al. Energy economic analysis of photovoltaic–thermal-thermoelectric (PVT-TE) air collectors Renewable and Sustainable Energy Reviews 92 (2018) 187–197
2. <https://www.solarhome.ru/basics/solar/pv/techsolarpanels.htm>
3. <http://www.techno-solar.com.ua/products-and-tehnology/solar-power-stations/>
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%BE%D1%82%D0%BE%D1%8D%D0%BB%D0%B5%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D1%82>
5. https://ru.freepik.com/premium-photo/photovoltaic-solar-power-panel-for-agriculture-in-a-rural-houses-area-agricultural-fields-blue-sky-backgroundagroindustry-of-household-rural-style-in-thailand-smart-farm-alternative-clean-energy_23294109.htm
6. <https://www.daraz.com.bd/products/tec1-12706-thermoelectric-cooler-peltier-i238885196.html>
7. https://commons.wikimedia.org/wiki/File:Thermoelectric_Generator_Diagram.fr.svg
8. <https://www.indiamart.com/issojetburner/solar-air-heater.html>
9. <https://shop5a.top/ProductDetail.aspx?iid=595341105&pr=67.88>
10. B. Kılıkış Development of a composite PVT panel with PCM embodiment, TEG modules, flat-plate solar collector, and thermally pulsing heat pipes Solar Energy / <https://doi.org/10.1016/j.solener.2019.10.075>
11. <https://dspace.univouargla.dz/jspui/bitstream/123456789/19228/1/Zahrouna%20-%20Bouaoune.pdf>
12. https://www.google.com/search?q=pv%20teg&tbo=isch&tbs=rimg:CS-fB5ugRUs_1YbKaN6FfJymsgIOCgIIABAAOgQIABAAQAHAAgA&rlz
13. Shoguchkarov, S.K., Halimov, A.S., Yuldashev, I.A., Jamolov, T.R. Verification of a Mathematical Model for a Photovoltaic Thermal-Thermoelectric Generator Unit Using Concentrated Solar Radiation / Applied Solar Energy (English translation of Geliotekhnika) , 2021, 57(5), pp. 384–390
14. Samiev, K.A., Halimov, A.S., Fayziev, S.S. Multiobjective Optimization of Integration of the Trombe Wall in Buildings Using a Full Factorial Experiment Applied Solar Energy (English translation of Geliotekhnika), 2022, 58(1), pp. 127–136

MAKTAB O‘QUVCHISI NUTQIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA EHTIYOJ

Jurayeva Sarvinoz O‘tkir qizi

BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mактабда nutq uslublari haqidagi bilimlar, asosan, 10-11-sinflarda o‘tilishi, mактабда nutq uslublarini o‘qitish o‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga borligi aytib o‘tilgan O‘quvchilarда nutq mantiqiy bo‘lishi, nutq aniq bo‘lishi, nutq til vositalariga boy bo‘lishi, nutq tushunarli bo‘lishi , nutq to‘g‘ri bo‘lishi kerakligi aytilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq uslublari, o‘quvchi nutqi ,nutq o‘stirish talablari,mazmundor nutq,mantiqiy nutq, so‘zlashuv, ilmiy , badiiy, publitsistik, rasmiy uslub.*

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin. Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqeа-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘ylisa, nutq mazmunsiz chiqadi. Nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig‘ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin. O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi va o‘rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo‘lmagan ortiqchilikka yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqeа-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o‘ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo‘lsin. O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til

vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib borishni har vaqt ko‘zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo‘lsin. Og‘zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi zarur. So‘zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o‘quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo‘lsin. Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, chiroqli, ishontiradigan bo‘lsa, eshituvchiga yoki o‘quvchiga ta’sir etadi. Og‘zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta’sir etsa, og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o‘quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so‘zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta’sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo‘lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so‘zlardan sof bo‘lishini taqozo etadi.

7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin. Maktab uchun nutqning adabiy til meyorlariga mos va to‘g‘ri bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og‘zaki nutq esa orfoepik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi uchun so‘z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Yrqrorda sanab o‘tilgan talablar o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘sirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallah asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘sirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘sirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalananadi, shunday ekan, u til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur

ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi»¹⁴. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at tarkibini, grammatic qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shartsharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchi fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchining barcha o‘quv predmetlaridan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o‘quvchi o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergen javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o‘sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma’naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, ma’rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta’lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti sanaladi. Ilmfan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo‘yilmoqda. O‘zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko‘p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma’naviy yetukligiga bog‘liq. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, uzluksiz ta’lim borasidagi yo‘riqnomalar har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

¹⁴ Иванов П. И. Умумий психология. –Т.: Ўқитувчи, 1967. –306 - 6.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Неъматов X., Фуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т.: PTM, 1992. – 30 б.
2. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent, 2016. – 98 b.
3. Розиқов О., Маҳмудов М., Адизов Б. Она тили дидактикаси. – Т.:Fan, 2006. – 337 б.
4. Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1980.
5. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –162 б.
6. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –Б. 88.
7. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Т.: Фан, 1982.– Б.18.
8. Қодиров П.Тил ва эл. –Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.14.

IMPROVEMENT OF THE RESULTS OF BREAST CANCER ORGANOSPARE TREATMENT WITH THE USE OF INTRAOPERATIVE CHEMOTHERAPY IN THE BODY'S AUTO ENVIRONMENT

Sherbekova D.U, Norqizilova G.O, Ashurova N.Sh

4th Grade Students of Tashkent Medical Academy

Abstract: *The aim of the study is to improve the results of organ-preserving treatment of patients with T1–2N0–1M0 breast cancer. This phase IV trial studies the side effects of intraoperative radiation therapy and how well it works in treating patients with breast cancer undergoing breast-conserving surgery. Delivering radiation one time to the area where the tumor was removed while the patient is still in the operating room may kill any residual tumor cells and may be as effective as standard radiation therapy in patients with early stage breast cancer.*

Key words: *T1- 2NO-1MO, autoplasmachemotherapy, intraoperative, breast cancer.*

Material and methods.

The study included 270 patients with T1–2N0–1M0 breast cancer, incl. 113 patients under 50 years old. Morphologically, infiltrating ductal carcinoma predominated (74%). The patients were divided into 2 groups, comparable in age, the state of menstrual function, the degree of prevalence of the tumor process, the morphological form of the tumor. 120 patients (Group 1) underwent organ-preserving surgery in the scope of radical resection of the mammary gland, including dissection of all stages of lymphogenous metastasis, and received intraoperative chemotherapy using autologous media: intravenous autohemochemotherapy with doxorubicin 30 mg, interstitial autoplasmochemotherapy and autoleukochemotherapy with cyclophosphamide 200 mg and 5-fluorouracil 500 mg. 150 patients (Group 2)

underwent a radical resection of the mammary gland with dissection of lymph nodes at all stages of lymphogenous metastasis without the use of intraoperative chemotherapy in the automedia of the body. Patients of all groups after surgery received a course of radiation therapy to the mammary gland and lymphatic drainage pathways in SOD 40 Gy and 4–6 courses of adjuvant polychemotherapy according to the CMFAV scheme. The patients were followed up for 5 years.

Results.

The frequency of progression of breast cancer in patients of the 1st group was 5.5%, in patients of the 2nd group - 12.4%. Five-year disease-free survival in patients of the 1st group was $91.83 \pm 2.9\%$, in patients of the 2nd group - $82.84 \pm 3.8\%$ ($p<0.05$). The overall survival of patients with breast cancer after different types of treatment differs not as significantly as recurrence-free. Thus, 5-year overall survival in patients of the 1st group was $97.8 \pm 1.5\%$, in patients of the 2nd group - $93.7 \pm 2.4\%$. However, there

The incidence of recurrence and metastasis of breast cancer after treatment undoubtedly affects the quality of life of patients.

Conclusions.

The use of intraoperative chemotherapy on the automedia of the body in the organ-preserving treatment of breast cancer T1-2N0-1M0 has significantly improved the results of treatment of patients. A treatment plan is summary of your cancer and the planned cancer treatment. The biology and behavior of breast cancer affects the treatment plan. Some tumors are smaller but grow quickly, while others are larger and grow slowly. Treatment options and recommendations are very personalized and depend on several, including; the stage of tumor, genomic tests, such as multigene tests, the patients age, general health, menopausal status and preferences, based on result genetic tests.

REFERENCES

1. IARC GLOBOCAN 2012: Estimated Cancer Incidence, Mortality and Prevalence Worldwide in 2012, WHO 2015.
2. Torre LA, Bray F, Siegel RL, Ferlay J, Lortet-Tieulent J, Jemal A. Global cancer statistics, 2012. CA Cancer J Clin, 2015 Mar, 65(2).
3. Breast Cancer Awareness Month, WHO 2015. Link: <http://www.who.int/mediacentre/commentaries/breast-cancer-awareness/en>.
4. Health care in Russia. Federal State Statistics Service (Ros-stat), 2015. Statistical collection, Moscow.
5. The state of oncological care for the population of Russia in 2015. Ed. HELL. Kaprina, V.V. Starinsky, G.V. Petrova. M., 2016.
6. Oncological diseases of the breast, soft tissue and bone sarcomas: a textbook. VC. Kosenok [and others]; ed. A.I. Novikov [i dr.]. Omsk: Publishing House of the Center for Moscow Region and ITOMGMA, 2008. 187 p.
7. Wang L, Guyatt G, Kennedy S et al. Predictors of persistent pain after breast cancer surgery: a systematic review and meta-analysis of observational studies. CMAJ, 2016 July 11. First published July 11, 2016, doi:10.1503/cmaj.151276.
8. Taplin SH et al. Reason for Late-Stage Breast Cancer: Absence of Screening or Detection, or Breakdown in Follow-up? JNCI J Natl Cancer Inst, 2004, 96(20): 1518-1527.
9. Breast cancer: prevention and control.
<http://www.who.int/cancer/detection/breastcancer/en/index1.html>

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Turdiyev Botir Azamat o'g'li, & Ergasheva Elnora Oltiboy qizi. (2023). CHIGITLARNI BENTONENT LOYQASI BILAN KAPSULALAB EKISHNING AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(12), 4–9. https://doi.org/10.5281/zenodo.7922248
2	Egamberdiyeva Durdona Abduqaxxon qizi, & PhD L.Djurayeva. (2023). INSTITUTGA ASOS BO'LGAN KAFEDRA. SCHOLAR, 1(12), 10–15. https://doi.org/10.5281/zenodo.7922263
3	Худойбердиева Мафтунафону Мехрожевна, & Каримова Азиза Махомадризоевна. (2023). КРЕДИТНАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНЕ И ФАКТОРЫ, ПРЕПЯТСТВУЮЩИЕ ЕГО РАЗВИТИЮ. SCHOLAR, 1(12), 16–25. https://doi.org/10.5281/zenodo.7922277
4	Berdiqulova Nigora Raxmonovna. (2023). BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI. SCHOLAR, 1(12), 26–32. https://doi.org/10.5281/zenodo.7922289
5	Qoraqulov Doston To'lqin o'g'li. (2023). O'ZBEKİSTONDA SIYOSIY PARTİYALAR FAOLIYATI VA ULARNING HUQUQIY ASOSLARINI TASHKIL ETİLİŞ TARIXI. SCHOLAR, 1(12), 33–39. https://doi.org/10.5281/zenodo.7922295
6	Xolnazarova Sitora Xolmurodova, & Omonturdiyev Nurali Rashidovich. (2023). O'ZBEK TILI PUNKTUATSIYASINING TAMOYILLARI VA USLUBIYATI. SCHOLAR, 1(12), 40–44. https://doi.org/10.5281/zenodo.7922299
7	Shoturayev Farhod Sherali o'g'li. (2023). FITRAT – SHE'RIYATIDA VAZN VA RITM MUAMMOSI. SCHOLAR, 1(12), 45–51. https://doi.org/10.5281/zenodo.7923129

8

Z.I. Radjabova, & S.S. Akramova. (2023). FRAZEOLOGIK MINIMUMLARNING MAVZUVIY-SEMANTIK UYALARI. SCHOLAR, 1(12), 52–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7922322>

9

Boymirzayev O'lmas Otabek o'g'li. (2023). CoreAFM YORDAMIDA Fe/p-Si GIBRID STRUKTURASINING SIRTI MORFOLOGIYASINI O'RGANISH. SCHOLAR, 1(12), 56–59. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7922333>

10

Азизов Бекзод Ғайрат ўғли, & Жўраев Диёр Турдиқулович. (2023). БАХОРГИ БУҒДОЙ НАВ НАМУНАЛАРИНИНГ БИОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИ. SCHOLAR, 1(12), 60–64.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7922343>

11

Миралиева Диана Нұрмұханқызы, & Байзаков Жандос Абдазимович. (2023). СОПЫЛЫҚ ДУНИЕТАНЫМНЫҢ НЕГІЗІН ҚАЛАУШЫЛАРДЫҢ БІРІ ҚОЖА АХМЕТ ЙАССАУИ. ДИУАНИ ХИКМЕТ ШЫГАРМАСЫ. SCHOLAR, 1(12), 65–68. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7922359>

12

Оразалиева Айдана Нұрлан қызы, & Байзаков Жандос Абдазимович. (2023). ҚАЗАҚСТАННЫҢ ҚАЗАҚ ӘДЕБИЕТІНІҢ НЕГІЗІН ҚАЛАУШЫЛАРДЫҢ БІРІ, АТАҚТЫ АҚЫН, ДАРЫНДЫ ДРАММАТУРГ – СӘКЕН СЕЙФУЛЛИН. SCHOLAR, 1(12), 69–72.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7922946>

13

M.Z. Ahmadxojayev. (2023). TA'LIM TIZIMI ISLOHI, MODERNIZATSIYALASH VA INSONPARVARLIK TAMOILI ASOSIDAGI SIYOSIY YETAKCHINING TENDENSIYALAR. SCHOLAR, 1(12), 73–77.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7922954>

14

Alimurodov Temur Bahodir o'g'li. (2023). VALYUTA KURSI REJIMLARI. SCHOLAR, 1(12), 78–89. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7922969>

15

Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li. (2023). O'ZBEKISTON HAMDA O'RTA OSIYONING XALQARO TRANSPORT KORIDLARI. SCHOLAR, 1(12), 90–99. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7922977>

16

Allayarov Alisher O'tkirovich. (2023). RAQAMLI VALYUTALARNI HISOBGA OLISH. SCHOLAR, 1(12), 100–111.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7922985>

17

Egamov B.B, Yoziyev L.H, & Rahimov A.L. (2023). QARAG'AY TURKUMI VAKILLARINING QASHQADARYO VILOYATINING EKOLOGIK OMILLARIGA MUNOSABATI. SCHOLAR, 1(12), 112–115.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923011>

18

A.L.Raximov, & Q. Qayumova. (2023). SHAXRISABZ SHAHRI SHAROITIDA BUDDLEJA DAVIDII FRANCH. NAVLARINING GULLASH FENOLOGIYASI. SCHOLAR, 1(12), 116–118.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923018>

19

Kodirova Shaxnoza Salomovna. (2023). DORIVOR O'SIMLIKARINI TASHISH VA SAQLASHGA QO'YILGAN TALABLAR. SCHOLAR, 1(12), 119–122. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7923032>

20

Abduraximova Farida Komiljon qizi. (2023). INGLIZ TILINI O'QITISHDA MAQOLLARNING ROLI. SCHOLAR, 1(12), 123–127.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923042>

21

Murotova Yulduz Faxriddin qizi. (2023). SAID AHMAD NASRINING NAFISLIGI. SCHOLAR, 1(12), 128–131.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923056>

22

M. Nabiyeva. (2023). FOTO-ISSIQLIK-TERMOELEKTRIK GENERATORLAR. SCHOLAR, 1(12), 132–135.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923078>

23

Jurayeva Sarvinoz O'tkir qizi. (2023). MAKTAB O'QUVCHISI NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA EHTIYOJ. SCHOLAR, 1(12), 136–139.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923086>

24

Sherbekova D.U, Norqizilova G.O, & Ashurova N.Sh. (2023). IMPROVEMENT OF THE RESULTS OF BREAST CANCER ORGANOSPARE TREATMENT WITH THE USE OF INTRAOPERATIVE CHEMOTHERAPY IN THE BODY'S AUTO ENVIRONMENT. SCHOLAR, 1(12), 140–142.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7923096>